

M.X. Mirjamolov, F.M. Muradov

**IMKONIYATI CHEKLANGAN
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARНИ
JISMONIY TARBIYA MASHG'ULOTLARINI
TUZISHDA TABAQALASHTIRILGAN
YONDASHUV MEXANIZMI**

MONOGRAFIYA





O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SPORT VAZIRLIGI

JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY
TADQIQOTLAR INSTITUTI

M.X. Mirjamolov, F.M. Muradov

IMKONIYATI CHEKLANGAN
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARНИNG
JISMONIY TARBIYA MASHG'ULOTLARINI
TUZISHDA TABAQALASHTIRILGAN
YONDASHUV MEXANIZMI

MONOGRAFIYA

TOSHKENT
«KITOB BILIM YOG'DUSI» MCHJ -2024

O'ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY
TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

No _____ / _____

UO'K: 616-01-099:796

KBK: 65. 796

Taqrizchilar:

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti "Sport psixologiyasi va pedagogika" kafedrasи mudiri pedagogika fanlari doktori (DSc.), dotsent **J.M. Ishtayev**

Paralimpiya sport turlari bo'yicha mutaxassislarни tayyorlash instituti paralimpiya sport turlari nazariyasi va uslubiyati kafedrasи mudiri pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD.), dotsent **N.Sh. Bobomurodov**

M.X. Mirjamolov, F.M. Muradov // "Imkoniyati cheklangan mактабгача ўoshдаги болалarning jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tuzishda tabaqlashtirilgan yondashuv mexanizmi" [monografiya] T.: "KITOB BILIM YOG'DUSI" MCHJ, 2024 – 152 bet.

Mazkur monografiyada imkoniyati cheklangan mактабгача ўoshдаги болалarning jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida asosiy harakatlarga о'rgatish va tabaqlashtirilgan harakatli o'yinlar orqali o'z-o'zini nazorat qilish, harakat faoliyatini sodda-elementar, vizual, taktil yondashuvlar bilan takomillashtirish bo'yicha dolzarb vazifalar ilgari surilgan. O'quv-mashg'ulotlar jarayoniga ratsional yuklamalarni joriy qilish hamda har bir nozologiya bo'yicha variativ mashqlar majmuasining organizmga korreksion ta'siri xaqida keng fikrlar berilgan bo'lib, jismoniy imkoniyati cheklangan mактабгача ўoshдаги bolalar mashg'ulotlariga nozologiyasi bo'yicha tabaqlashtirilgan variativ dasturlar orqali bevosita harakat faolligini oshirishning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish masalalari keng yoritilgan.

Monografiya talabalar, magistarantlar, katta ilmiy-hodim izlanuvchilar, doktorantlar hamda sport mutaxassislari va murabbiylariga tavsiya etiladi.

Ushbu monografiya Jismoniy tarbiya va sport ilmiy-tadqiqotlar instituti O'quv-Uslubiy Kengshida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2024-yil _____) bayonnoma

ISBN: 978-9910-8918-4-7

© M.X. Mirjamolov, F.M. Muradov, 2024

© "KITOB BILIM YOG'DUSI" MCHJ, 2024

SHARTLI BELGILAR

PQ - prezident qarori

PF - prezident farmoni

O'TS - o'pkaning tiriklik sig'imi

DKTIMTT - Davlat ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan
maktabgacha ta'lim tashkiloti

YuQS - yurak qisqarishlar soni

MUNDARIJA

Shartli belgilar	3
Mundarija	4
Kirish.....	5
I bob. Imkoniyati cheklangan maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tuzishdagi muam-molarga oid ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili.....	8
§1.1. Imkoniyati cheklangan maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy rivojlantirish masalalari, tizimdagи hozirgi amaliy holatning tahlili	8
§1.2. Imkoniyati cheklangan bolalarning tibbiy-fiziologik va psixologik-pedagogik xususiyatlari	17
§1.3. Bolalarning jismoniy rivojlanishi va harakat qobiliyat-larining xususiyatlari	54
II bob. Imkoniyati cheklangan maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy tarbiya mashg'ulotini tuzishda "ohista qadam" tabaqlashtirilgan variativ dasturini qo'llash uslubiyati	59
§2.1. Imkoniyati cheklangan maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy sifatlari rivojlanishi dinamikasi	59
§2.2. Imkoniyati cheklangan maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ishlab chiqilgan "Ohista qadam" variativ tabaqlashtirilgan dasturini qo'llash uslubiyati.....	72
§2.3. Pedagogik jarayonda qo'llanilgan "Ohista qadam" vositalari va uslublarining samaradorligi.....	80
III bob. Jismoniy tarbiya metodikasini qo'llash samarador-ligini aniqlash bo'yicha pedagogik tajriba natijalari va ularning tahlili.....	94
§3.1. Imkoniyati cheklangan maktabgacha yoshdagi bolalarning funksional imkoniyatlarini baholashning yakuniy natijalari	94
§3.2. Imkoniyati cheklangan maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy harakatlari tayyorgarligining yakuniy natijalari tahlili.....	97
Xulosalar	116
Amaliy tavsiyalar	119
Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati	121
Ilovalar	138

KIRISH

Monografiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.

Dunyoda bugungi kunda inkyuziv ta'lim haqli ravishda ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda, chunki u imkoniyati cheklangan bolalar va kattalarni o'zaro yordam amaliyatiga qo'shishga, jamiyatda muqobil rivojlanishi bo'lgan bolalarga nisbatan stereotiplarni yengib o'tishga yordam bermoqda. Imkoniyati cheklangan mактабгача yoshdagи bolalarning ijtimoiylashuvi, jamiyatda faol o'ringa chiqishi, ularning farovon hayot kechirishlari hamda ijtimoiy moslashuvini samarali shakllantirish, jismoniy harakat, ko'nikma va malakalarini intensiv o'stirib borish ustida ishlar olib borilmoqda. Inkyuziv ta'lim mamlakatlarning ijtimoiy qadriyat va ta'lim siyosati tamoyili bo'lib, ta'lim jarayonining jahon darajasiga qanchalik mos kelishi yoki undan ortda qolayotganini belgilashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda imkoniyati cheklangan bolalarning harakat va bilish sohalari bo'yicha bir qator olimlar ish olib bormoqda, jumladan: tabiiy (biologik) va psixofizik rivojlanishda kechikishning namoyon bo'lishi, yirik va mayda harakatikaning rivojlanishidagi sekinlashuv va harakatdagi nuqsonlarni aniqlash, jismoniy faollikni oshirish, sensomotorikani rivojlantirish, imkoniyati cheklangan mактабгача yoshdagи bolalarni ijtimoiylashtirish va jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini moslashtirish kabi masalalar bir qancha xorijiy tadqiqotlarning bosh masalasi sifatida e'tirof etilmoqda.

Respublikamizning Davlat tasarrufidagi ko'п tarmoqli ixtisoslashtirilgan mактабгача ta'lim tashkilotlarida jismoniy yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun mактабгача ta'lim va tarbiyaning davlat ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha

ko'plab ishlar olib borilmoqda. "Alovida ta'lif ehtiyojlari bo'lgan har bir bolaning inkyuziv ta'lif olish huquqini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish"¹ vazifalari belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun alovida ta'lif ehtiyojlari bo'lgan bolalarga inkyuziv ta'lif-tarbiya berishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash yuzasidan pedagog xodimlar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish, inkyuziv ta'lifda o'qitish usullarini takomillashtirish, mazkur jarayonga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, alovida ta'lif ehtiyojlari bo'lgan bolalarning kmsitilishi, ularga nisbatan shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kmsituvchi muomalada bo'lishning oldini olishga qaratilgan mexanizmlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish talab etilmoqda. Alovida ta'lif ehtiyojlari bo'lgan bolalarni erta aniqlash va qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, bolalarning ehtiyojlarini inobatga olgan holda sifatli ta'lif olishi uchun teng imkoniyatlarga ega bo'lishini hamda qulaylikni ta'minlash bo'yicha davlat kafolatlarining amalga oshirilishini ta'minlovchi tashkiliy-boshqaruva mexanizmlarini yaratish zaruriyat yuzaga kelmoqda. Har bir bolaning shaxsiy xususiyatlariga mos ravishda rivojlanish huquqini ta'minlash, alovida ta'lif ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ko'rsatiladigan ta'lif xizmatlari sifatini yaxshilash, ta'lif muassasalarini zarur metodik qo'llanmalar bilan ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish kabi ustuvor vazifalar ishning dolzarbligini oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentabr-dagi 5198-son "Maktabgacha ta'lif tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni, 2016 yil

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 13 oktyabrdagi "Alovida ta'lif ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lif-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-soni
Qonuni. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.10.2020 y., 07/20/4860/1383-son).

29 dekabrdagi 2707-sodan "2017-2021 yillarga mo'ljallangan maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017 yil 9 sentabrdagi 3261-sodan "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabrdagi 802-sodan "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli me'yoriy huquqiy hujjalarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu monografiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

I BOB. IMKONIYATI CHEKLANGAN MAKTABGACHA YOSHDAKI BOLALARINING JISMONIY TARBIYA MASHG'ULOTLARINI TUZISHDAKI MUAMMOLARGA OID ILMUY-USLUBIY ADABIYOTLAR TAHLILI

§1.1. Imkoniyati cheklangan maktabgacha yoshdag'i bolalarni jismoniy rivojlanishirish masalalari, tizimdag'i hozirgi amaliy holatning tahlili

Pedagogik jarayonni ishlab chiqish, didaktik yo'nalishlarni aniqlash, o'quv faoliyati muammolarini qo'yish va hal qilish uchun rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning sog'lig'i, jismoniy, aqliy va shaxsiy xususiyatlarini bilish kerak. Pedagogik ta'sirlar har qanday ta'lif jarayonining boshlang'ich sharti hisoblanadi.

Ushbu bolalar toifasi nozologiya, yosh, nuqsonning og'irligi va tuzilishi, uning paydo bo'lishi vaqt, kasallikning sabablari va tabiat, tibbiy prognoz, birga kechadigan kasalliklar va ikkilamchi og'ishlarning mavjudligi bo'yicha juda xilma-xildir. Bolalikdan imkoniyati cheklangan bolalar uchun disontogenez va kechikishning namoyon bo'lishi tabiiy (biologik) va psixofizik rivojlanishda ham xarakterlidir, bu yoshning sezgir davrlarida siljishlarni keltirib chiqaradi.

Bolaning harakatga, o'yinga, hissiyotlarga, muloqotga bo'lgan tabiiy ehtiyojlarining yetishmasligi o'quv jarayonini murakkablashtiradi.

Ko'pgina tadqiqotlarga ko'ra, bolaning harakati va jismoniy rivojlanishining anomaliyalari, harakat sohasining yetishmasligi holatida ular jismoniy rivojlanish darajasi va jismoniy tayyorgarligi bo'yicha sog'lom tengdoshlaridan 1-3 yil va ba'zan undan ko'proq orqada qoladilar.

Asosiy nuqson odatda birga kechadigan kasalliklar va ikkilamchi anomaliyalar bilan birga keladi (1.1-jadvalga qarang).

Markaziy asab tizimining tuzatib bo'lmaydigan shikastlanishi tufayli, aqli zaif bolalarda jismoniy va aqliy rivojlanish nuqsoni davom etadi, suyak, mushak, endokrin, hissiy tizimlar, yuqori aqliy funksiyalar: nutq, fikrlash, diqqat, xotira, his-tuyg'ular va shaxsiyati umuman rivojlanmagan bo'ladi. Tarbiyalanuvchilarning harakat sohasida jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarlik darajasida kechikishlarning mavjud bo'lishi, ammo eng aniq buzilishlar harakatlarni muvofiq-lashtirishda qayd etilib, mushaklarning harakatlarini farqlashda qo'pol xatolar, haddan tashqari kuchlanish, harakatlarning qattiqligi va noto'g'riliqi, cheklangan amplituda, fazoviy oriyentatsiya, muvozanatning buzilishi va boshqalar namoyon bo'ladi.

Eshitish qobiliyatining yo'qolishi, nutqni barcha tomonlari rivojlanishining buzilishiga va ba'zi hollarda uning to'liq mavjud bo'lmasligiga olib keladi. Bu fikrlash imkoniyatlarini cheklaydi, shuningdek xatti-harakatlarning o'ziga xos xususiyatlarida namoyon bo'ladi: chekinish, aloqaga kirishni istamaslik. Eshitish qobiliyatining shikastlanishi tufayli tashqi ma'lumotlarning cheklangan oqimi uning ma'nosini idrok etishni buzadi, muloqotni hamda psixoharakat rivojlanish sharoitlarini murakkablashtiradi, salbiy his-tuyg'ular va stressli holatlarni keltirib chiqaradi. Eshitish qobiliyatini yo'qotish ko'pincha vestibulyar apparatlarning shikastlanishi bilan birga kechadi, bu esa bolaning harakat sohasiga salbiy ta'sir qiladi. Odatiy ko'rinishlar - statik va dinamik muvozanatning buzilishi, harakatlarning aniqligi, fazoviy yo'nalish, harakatlarning ma'lum bir ritmini o'zlashtirish qobiliyatlarining buzilishida namoyon bo'ladi.

1.1-jadval

Turli nozologik guruhlarning imkoniyati cheklanganligi bo'gan odamlarda tipik buzilishlarning xususiyatlari

Ko'rish qobiliyatining buzilishi	Eshitish qobiliyatining buzilishi	Aqli zafifik miya	Tayanch-harakat apparati tizimining shikastlanishi miya	orga miya	amputasiya
Fazoviy tasvirlarni, o'z-o'zini nazorat qilish va o'z-o'zini tartibga solish-harakatlarni muvoqiqashirish va aniqlikni buzilishi. Qad-qommatni buzilishi, yassi oyoglar, nafas olish mushaklarining zafligi. Nevrozlar, nafas olish tizimi kasalliklari, yurak-qon tomir kasalliklari, tizim, metabolizm. Minimal miya disfunksiyasi, eshitish qobiliyatining pasayishi. Tez charchash.	Vestibulyar apparatlar funksiyalarining buzilishi, harakat va aqlli rivojanishning kechikishi, nutg, xotira, e'tibor, fikrash, muloqoting buzilishi. Muvozanat, ritm, harakatlarning aniqligi, sezgirlik, fazoviy-vaqt oriyentatsiyasining buzilishi. Jismoniy rivojanishning disgarmoniyasi, Nafas olish tizimi kasalliklari, vegetativ-somatik buzilishlar.	Kognitiv buzilishi. Asab jarayonlarining kuchi va harakatchanligining pasayishi. Yuqori aqili funksiyalarning buzilishi; markaziy asab tizimining analistik va sintetik faoliyati. Displaziya, suyaklanish jarayonining buzilishi, oyoq, umurtqa pog'oniysi deformatsiyalari, jismoniy rivojanishning disgarmoniyasi, harakatlarni muvoqiqashirish-ning buzilishi.	Buzilgan tayanch, muvozanat, vertikal turish, fazoda orientatsiyal-nish, mikro va makro-harakatlarni muvoqiqashashti-rish. Osteokondroz, mushaklarining zailashishi, osteoporoz, kontrakturalar, ismoniy rivojanishning disgarmoniyasi.	Harakatning to'liq yoki qisman y'o'qolishi, sezuvechanlik, tos a'zolarining disfunksiyasi. Vegetativ funksiyalarning buzilishi. Osteoporoz. Yuqori (bo'yin shikastlanishi bilan) - nafas olishning buzilishi, ortostatik kasalliklar. Bo'shashgan falaj, mushaklar atrofyasi bilan.	Tayanch harakat va yurishning buzilishi (yoq-qo'llarlarning amputasiysi bilan), harakatlarni muvoqiqashirish, vertikal holat, tana vazning pasayishi, Tartibga solish mekanizmlarining buzilishi, asab-mushak va suyak to qimalardan degenerativ o'zgarishlar, kontrakturalar. Qon aylanishi, nafas olish, ovqat hazm qilish, metabolik jarayon larning buzilishi, semirib ketish. Umumiy ishlasning pasayishi, fantom og'rig'i.
				Yurak-qon tomir va nafas olish tizimlarining buzilishi, ichki organlar kasalliklari, ko'rish, eshitish, aqilidrokning buzilishi. Yomon ishlas.	

Bolalarda eshitish qobiliyatining yo'qolishi 62% hollarda disgarmonik jismoniy rivojlanish bilan, 44% da - tayanch-harakat tizimining nuqsonlari (skolioz, yassi oyoqlik), 80% da - kechikkan harakat rivojlanishi bilan birga kuzatiladi. Kar va zaif eshituvchi bolalarning 70 % ida birga kechadigan kasalliklar kuzatiladi. Eng ko'p uchraydigan nafas olish tizimining kasalliklari: o'tkir respiratorli infeksiyalar, bronxit, pnevmoniya, shuningdek aqliy zaiflik, intellekt rivojlanishidagi og'ishlar, vegetativ-somatik kasalliklar.

Bolalarda ko'rishning to'liq yoki qisman yo'qolishi, ularning hayotiy faoliyatini sezilarli darajada o'zgartiradi. Fazoviy tasvirlarning buzilishi, tevarak atrofni to'liq his eta olmaslikka olib keladi, o'z-o'zini nazorat qilish va o'zini o'zi boshqarish turli xil kasalliklar bilan birga kechadi. Bolalarning 40 % ida miya yarim disfunksiyasi (markaziy asab tizimining yengil shikastlanishi), 30 % dan ortig'i somatik kasalliklar (piyelonefrit, nafas olish va yurak-qon tomir tizimi kasalliklari), 80% bolalar nevrozlardan aziyat chekmoqda. Ikkilamchi buzilishlar orasida umumiy va nafas olish mushaklarining zaifligi, umurtqa pog'onasining egriligi, oyoq deformatsiyasi eng xarakterlidir, bu tabiiy ravishda bolaning jismoniy tayyorgarligiga, ishslashiga va harakatlariga salbiy ta'sir qiladi. Ko'r va ko'rish qobiliyati zaif bolalarning deyarli 80 % ida qomatning buzilishi kuzatiladi. Umumiy harakat faolligining pasayishi, harakatlarni muvofiqlashtirish va aniqligi, muvozanat saqlash, fazoviy va vaqt yo'nalishlari, tezlik qobiliyatining past darjasи, chaqqonlik, barcha mushak guruhlarining kuchi, bo'g'imlarning harakatchanligi 12 -15% ga kamayadi.

Eshitish, ko'rish, intellekt, miya yarim falaji va boshqalarning buzilishi kabi rivojlanish anomaliyalari nafaqat harakat qobiliyatları va muvofiqlashtirishning buzilishi, balki yuqori

aqliy funksiyalar, ayniqsa nutq, diqqat, xotira va boshqalarni cheklash bilan birga kechadi. Kognitiv, kommunikativ, ta'lim, mehnat, harakat faoliyati va tuzatishga muhtoj bo'ladilar.

Bir qator mualliflarning ta'kidlashicha, nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarda qomat, nafas olish mushaklari, umumiy va mayda harakatika harakatli ko'nikmalar rivojlanmaganligi, muvozanatni buzilishi, tez-tez shamollash, nevrozlar mavjudligi kuzatiladi.

Har xil og'ishlarga ega bo'lgan bolalarning harakat sohasini shakllantirishning umumiy qonuniyatlarini va xususiyatlarini bilish, harakat buzilishlarini tuzatishning samarali pedagogik usullarini izlashda alohida ahamiyatga ega. Bolalarning harakat sohasi holatiga quyidagi omillar ta'sir qiladi:

Asosiy nuqsonning og'irlik darajasi va tuzilishi, uning harakatni bajarish darajasiga ta'siri. Harakat qurilishining har bir darjasini morfologik lokalizatsiya, yetakchi afferentatsiya, harakatlarning o'ziga xos xususiyatlari, yuqori darajadagi harakat harakatlaridagi asosiy va fon roli, patologik sindromlar va disfunksiya bilan tavsiflanadi. Bu shuni anglatadiki, hissiy nuqsonlar, aqliy zaiflik va miya yarim falaji bo'lgan bolalarda buzilgan harakat funksiyasi turli sabablarga ko'ra va turli xil tuzatish usullariga ega.

Aqli zaif bolalarda bu markaziy asab tizimidagi organik shikastlanishlarning lokalizatsiyasi bo'lib, bu harakat ko'nikmlarining kam rivojlanganligiga olib keladi. Shikastlanish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, harakat buzilishlari shunchalik og'irroq bo'ladi va pastki darajalar ko'proq saqlanib qoladi, ammo ular faqat elementar harakat harakatlarini tartibga soladi. Shuning uchun, eng buzilgan elementar harakatlar emas, balki kortikal darajadan tushirish, og'zaki harakat va tartibga solishni talab qiladigan murakkab muvofiqlashtiruvchi harakatlardir.

Sezgi anomaliyalari bo'lgan bolalarda harakat buzilishining sababi – to'liq afferentatsiyaning yo'qligi yoki cheklanishi bo'lib, u fazoviy tahlil va sintez, kinestetik, vizual, eshitish, harakatlarning taktil idrokini, tana sxemasini shakllantirishga ta'sir qiladi.

Jismoniy faollikning erta boshlanishi. Ilmiy tadqiqotlar, mahalliy va xorijiy tajribalar tibbiy-psixologik-pedagogik reabilitatsiya qancha erta boshlansa, shunchalik samarali bo'lishini ko'rsatmoqda. Rivojlanayotgan, shakllanayotgan organizm jismoniy mashqlar, harakat va ruhiy kasallikkarni tuzatish va kompensatsiya qilish ta'siriga ko'proq uchraydi va sezgir bo'lishi kuzatiladi. Agar hayotning birinchi oylaridan boshlab imkoniyati cheklangan bola bilan, avvalo oilada, keyin maktabgacha va mакtab (tuzatish) muassasalarida tizimli mashg'ulotlar olib borilsa, reabilitatsiya salohiyati yuqori bo'ladi. Jismoniy mashqlarni erta boshlash, saqlanib qolgan harakat funksiyalarini kuchaytirishga, ikkilamchi buzilishlarni paydo bo'lishining oldini olishga va mustaqil mashqlar uchun harakat tajribasiga ega bo'lishga imkon beradi. Jismoniy faollikning cheklanishi yoki yo'qligi, bolaning tanasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi jismoniy harakatsizlikka olib keladi, ya'ni harakatga bo'lgan tabiiy ehtiyojning pasayishi, mushaklar faolligining pastligi, tanani barcha tizimlarining funksional buzilishi, atrofik o'zgarishlar sodir bo'ladi. Mushak-skelet tizimi, umurtqa pog'onasi va oyoq deformatsiyasi, hayotiy jismoniy fazilatlarning pasayishiga olib keladi.

Psixik rivojlanish xususiyatlari. Sog'lom tengdoshlar bilan taqqoslaganda, g'ayritabiyy bolalar psixikasining xronologik rivojlanishi kechikish bilan sodir bo'ladi. Ushbu fonda, birinchi navbatda, kognitiv faollik, hissiy-irodaviy soha va shaxsiyatning shakllanishi bilan bog'liq turli xil buzilishlar aniqlanadi, bu

ko'plab omillar ta'siri bilan bog'liq: majburiy izolyatsiya, sog'lom tengdoshlar va kattalar bilan cheklangan aloqalar yuzaga chiqadi. Obyekt amaliy faoliyatdag'i qiyinchiliklar, harakat va hissiy buzilishlarni boshidan o'tkazadi.

Birlamchi nuqsonning o'ziga xos xususiyatlaridan qat'i nazar, barcha bolalar buzilgan neyropsixik rivojlanish nuqsonlari bilan tavsiflanadi: aqliy qobiliyatning pastligi, diqqatning yetarli darajada bo'lмаган konsentratsiyasi, xotira, hissiy-irodaviy sohaning yetuk emasligi, hissiy beqarorlik; rivojlanishning kechikishi, nutq, atrof-muhit haqidagi bilim va g'oyalar, kommunikativ xatti-harakatlarning yetishmasligi, kognitiv qiziqishlarning yetarli darajada ifodalanmasligi, bu ixtiyoriy harakatlar va jismoniy rivojlanishning shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Anomal rivojlanishi bo'lgan bolalarning salomatlik holatini, jismoniy va aqliy rivojlanishining o'ziga xos buzilishlarini, harakat sohasiga ta'sir qiluvchi omillarni qisqacha tahlili, har xil darajada xarakterli bo'lgan tipik harakat buzilishlarini aniqlash imkonini berdi.

Bolalarning barcha nozologik guruhlari uchun:

- birlamchi nuqsonning darjasи va uning salbiy oqibatlari tufayli harakat faolligining pasayishi;
- jismoniy rivojlanishning buzilishi: tana muvozanatining buzilishi, oyoq va umurtqa pog'onasining deformatsiyasi, mushaklar "korseti"ning zaiflashishi, harakatni ta'minlaydigan vegetativ funksiyalarning pasayishi;
- muvofiqlashtirish qobiliyatining buzilishi: reaksiya tezligi, aniqligi, sur'ati, harakatlar ritmi, mikro va makro-harakatni muvofiqlashtirish, harakatlarni, vaqt va makonni farqlash, vestibulyar stimullarga qarshilik, fazoda oriyentatsiyalanish, bo'shashish;

- barcha hayotiy jismoniy qobiliyatlar darajasining pasayishi: kuch, tezlik, chidamlilik, moslashuvchanlik va boshqalar;
- tayanch-harakat faoliyatining buzilishi: yurish, yugurish (ayniqsa, tayanch qobiliyatini buzgan holda), shuningdek tirmashish, emaklash, sakrash, uloqtirish, bola hayotining asosini tashkil etuvchi asosiy mashqlar va harakatlar.

1930-yillarda L.S. Vigotskiy tomonidan ko'rsatilgan XX asr tamoyili bugungi kunda ham mahalliy defektologiyada yetakchilik qilmoqda. Prinsipning mohiyati shundan iboratki, pedagogik ta'sirlar nafaqat yengish, tuzatish, tekislash: anormal rivojlanishi bo'lgan bolalarning jismoniy va aqliy kamchiliklarini zaiflashtirishga, balki ularning bilim faolligini, aqliy jarayonlarini, axloqiy fazilatlarini, jismoniy qobiliyatlarini faol rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Tuzatish va rivojlanish yo'nalishi barcha ta'lim ishlariga xos bo'lib, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning barcha toifalarini qamrab oladi.

Tuzatish va rivojlantirish vazifalari to'liq jismoniy rivojlanishni ta'minlash, harakat faolligini oshirish, psixofizik qobiliyatlarni tiklash va takomillashtirish, ikkilamchi og'ishlarning oldini olishga qaratilgan. Tik turishning barqarorligi, muvozanatni saqlash va ishonchli yurish, fazoda o'z harakatlarini o'lhash va tartibga solish, ularni aniq, erkin, o'tkirlik va qattiqliksiz bajarish – bular bolaning normal hayoti uchun zarur bo'lgan xususiyatlari hisoblanadi.

Pedagogik faoliyatning korreksion-rivojlantiruvchi yo'nalishi harakat faoliyatlarini o'rgatish va jismoniy sifatlarni rivojlantirish jarayoni bilan uzviy bog'liqdir. Ta'lim, tuzatish hamda rivojlantirish muammolari bir xil o'quv materiali yordamida hal qilinadi, ammo ularda farqlar mavjud. Ta'lim vazifalari yuqori darajadagi dinamizm bilan tavsiflanadi, chunki

ular o'qitishning dasturiy mazmuniga mos kelishi kerak. Tuzatish va rivojlantirish vazifalari nisbiy doimiylik bilan tavsiflanadi, chunki ular har bir faoliyatda hal qilinadi. Shuning uchun rivojlanishda doimiy nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishslashda moslashtirilgan jismoniy tarbiyaning korreksion va rivojlanish yo'naliishi ustuvor o'rinni tutadi.

Konseptual holat – bu uyushgan harakat faoliyatining o'zaro bog'liqligi va psixofizik birligi va bolaning shaxsini maqsadli shakllantirish, uning kognitiv qobiliyatlarini, hissiy tizimlarini, psixikasini (idrok, e'tibor, xotira, his-tuyg'ular, fikrlash, nutq), aloqa, motivlarni tuzatish va rivojlantirish, qiziqishlar, ehtiyojlar, o'z-o'zini tarbiyalash kabilardir.

Adaptiv jismoniy madaniyatning korreksion va rivojlanish yo'naliishi pedagogik muammolarni hal qilishning keng doirasiga ega, ularni shartli ravishda quyidagi guruhlarga birlashtirish mumkin:

- 1) yurish, yugurish, suzish, uloqtirish, sakrash, buyumlar bilan mashq qilish va hokazolarda asosiy harakatlarni tuzatish;
- 2) muvofiqlashtirish qobiliyatlarini tuzatish va rivojlantirish;
- 3) jismoniy tayyorgarlikni tuzatish va rivojlantirish;
- 4) somatik kasalliklarni tuzatish va oldini olish;
- 5) aqliy va hissiy qobiliyatlarni shakllantirish, tuzatish va rivojlantirish;
- 6) kognitiv faollikni rivojlantirish;
- 7) bola shaxsiyatini shakllantirish.

Ushbu toifadagi bolalar uchun maxsus jismoniy tarbiya usullarining yetishmasligi jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini rejalashtirish va o'tkazishda jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi. Har bir jismoniy imkoniyati cheklangan bolaga individual yondashish zarurati ularning xususiyatlari va

ehtiyojlarini hisobga olgan holda moslashtirilgan usullarni ishlab chiqishni talab qiladi.

Bunday usullarning yetishmasligi jismoniy tarbiya mutaxassislari va o'qituvchilarining sifatli darslarni o'tkazish qobiliyatini cheklaydi, bu esa bolalarning jismoniy tayyorgarligining yetarli emasligiga va ularning ijtimoiy ajralib qolishiga olib kelishi mumkin. Shunday qilib, imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan adaptiv jismoniy tarbiya usullarini ishlab chiqish pedagogika, jismoniy tarbiya, tibbiyot va sport sohalari mutaxassislari o'rtasida tizimli yondashuv va hamkorlikni talab qiluvchi muhim omil hisoblanadi.


§1.2. Imkoniyati cheklangan bolalarning tibbiy-fiziologik va psixologik-pedagogik xususiyatlari

Eshitish qobiliyatini doimiy buzilishining sabablari

Bolalarda doimiy eshitish qobiliyatining buzilishi tug'ma va orttirilgan bo'lishi mumkin. Eshitish qobiliyatini buzilishining tug'ma tabiatи orttirilganga qaraganda kamroq qayd etiladi. Avvallari eshitishning tug'ma nuqsoni sababi sifatida ko'proq irsiy omillar ko'rsatilgan.

Tug'ma eshitish qobiliyatining boshqa sabablari homiladorlik davrida onaning yuqumli kasalliklar bilan og'rigani, bular orasida virusli infeksiyalar (qizamiq, gripp) alohida ahamiyatga ega. Eshitish organi rivojlanayotgan homila uchun eng xavfisi homiladorlikning dastlabki uch oyida onada paydo bo'ladigan kasallikdir.

Ba'zi kimyoviy moddalar homila rivojlanayotgan vaqtida eshitish organiga zarar yetkazishi mumkin. Eshtish qobiliyatini tarbiya va sport universiteti nuqsonlari paydo bo'lishida homiladorlik paytida o'na tomonidan



iste'mol qilinadigan spirtli ichimliklar va streptomitsin va xinin kabi dorivor moddalar amaliy ahamiyatga ega.

Eshitish organini rivojlanishining buzilishi, homilaning shikastlanishi natijasida, ayniqsa homiladorlikning birinchi oylarida, eshitish analizatorining homilada ayniqsa zaif bo'lgan ida sodir bo'lishi mumkin.

Eshitish qobiliyatining buzilishi turli sabablarga ko'ra yuzaga keladi. Eshitisning og'ir buzilishi odatda tovushni qabul qiluvchi apparat (ichki quloq, eshitish nervi) shikastlanganda, yengil va o'rtacha darajadagi eshitish buzilishi faqat ovoz o'tkazuvchi apparat (o'rta quloq) ta'sirlanganda paydo bo'lishi mumkin.

Bolalarda eshitish qobiliyatini buzilishining sabablari orasida birinchi o'rinni o'rta quloqning o'tkir yallig'lanishi (o'tkir otit) oqibatlari egallaydi. Bunday hollarda eshitishning shikastlanishi o'rta quloqdagi doimiy qoldiq o'zgarishlarga bog'liq bo'lib, timpanik membrananing va suyakchalar zanjirining normal harakatchanligini buzilishiga olib keladi. Ba'zi hollarda, o'tkir otit, o'rta quloq harakatlaridan so'ng, quloq membrananing doimiy teshilishi va quloqda uzoq muddatli yiringlash - surunkali yiringli otit mavjud bo'ladi. Ushbu kasallik odatda sezilarli eshitish qobiliyatini buzilishi bilan birga kechadi.

Bolalarda eshitish organini shikastlanishining umumiy sababi, burun va tomoq kasalliklari hamda evstaxiya naychasi o'tkazuvchanligining buzilishi bilan bog'liq.

Eshitishning doimiy buzilishining aniq shakllarining etiologiyasida ichki quloq va eshitish nervi, gavdaning shikastlanishi eng muhim rol o'ynaydi. Eshitish nervi yadrolarining, uning miyadagi yo'llarining, shuningdek, kortikal eshitish markazlarining shikastlanishi chastotada hamda eshitish qobiliyatining buzilishi darajasida nisbatan kamroq ahamiyatga ega.

Eshitishning doimiy buzilishining rivojlanishida o'tkir yuqumli kasalliklar muhim ahamiyatga ega bo'lib, eshitish qobiliyatining buzilishiga olib keladigan yuqumli kasalliklarning aksariyati bolalik davrida yuzaga keladi va shuning uchun bolalarda eshitish qobiliyatining buzilishi etiologiyasida bu kasalliklarning roli ayniqsa katta. Bolalikda doimiy eshitish qobiliyatining buzilishiga olib keladigan yuqumli kasalliklar: epidemik serebrospinal meningit, qizamiq, gripp, parotitlar hisoblanadi. Eshitish qobiliyati zaif bolalarning asosiy fiziologik xususiyatlaridan biri eshitish qobiliyatining buzilishidir. Eshitish - nutqni rivojlantirish, muloqot qilish va o'rganishda muhim rol o'ynaydigan asosiy hissiy organlardan biri. Eshitish qobiliyatining buzilishi og'irlik darajasida farq qilishi mumkin, ya'ni engil eshitish qobiliyatini yo'qotishdan karlikka qadar. Bu ularning atrof-muhit tovushlarini, shu jumladan nutqni idrok etish qobiliyatiga ta'sir qilishi mumkin, bu esa o'z navbatida o'rganish va ijtimoiy moslashishni qiyinlashtirishi mumkin.

Eshitish qobiliyati past bo'lgan bolalarda ma'lum vosita va muvofiqlashtirish muammolari ham bo'lishi mumkin. Buning sababi shundaki, eshitish muvozanat va harakatni muvofiqlashtirishni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun ular muvozanat, muvofiqlashtirish va muayyan vosita qobiliyatları bilan qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Bu ularning sport mashg'ulotlariga va jismoniy faolligiga ta'sir qilishi mumkin.

Muvozanat va fazoviy ong uchun mas'ul bo'lgan vestibulyar tizim, shuningdek, eshitish qobiliyati past bo'lgan bolalarda ham buzilishi mumkin. Bu masofalarni baholash, kosmosda o'zini yo'naltirish va harakatlarini nazorat qilishda qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Bu jihatlar oddiy kundalik faoliyat uchun ham,

jismoniy faoliyat va sport tadbirlarida qatnashish uchun ham muhimdir.

Ushbu fiziologik xususiyatlarni hisobga olgan holda, eshitish qobiliyati zaif bolalarni jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishga, ularning ehtiyojlari, qobiliyatlari va rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda individual yondashuvlarni ishlab chiqish kerak.

Eshitish qobiliyatining buzilishi, odatda, bir vaqtning o'zida rivojlanayotgan vestibulyar apparatlarning disfunksiyasi miya omurilik meningitida ichki quloqdagi yallig'lanish jarayoni - eshitish nervi qobig'i bo'ylab ichki eshitish yo'li orqali miya pardasidan yiringli infeksiyaning tarqalishi natijasida yuzaga keladi.

Lekin ba'zi hollarda to'liq ikki tomonlama karlik ham kuzatiladi. Ko'pgina tadqiqotchilarining fikriga ko'ra, parotiddagi karlik ichki quloqdagi reseptor apparati (korti organi hujayralari) faoliyatini to'xtashi bilan asoslangan. Kar bolalarning asosiy xususiyatlaridan biri to'liq yoki qisman eshitish qobiliyatini yo'qotishdir. Karlik turli sabablarga ko'ra yuzaga kelishi mumkin, masalan, genetik omillar, infektsiyalar, shikastlanishlar yoki ba'zi dori-darmonlarni qo'llash sababli. Bu bolalarning tovushlar va nutqni idrok etishda jiddiy qiyinchiliklarga duch kelishiga olib keladi.

Nutq va muloqot zaif eshituvchi bolalarning rivojlanishiga sezilarli ta'sir qiladi. Eshitish nutqni ishlab chiqarish va idrok etishda muhim rol o'ynaganligi sababli, kar bolalarning til ko'nkmalarini rivojlantirishda kechikishlar yoki buzilishlar bo'lishi mumkin. Bu ularning boshqalar bilan muloqot qilish va munosabat o'rnatada olish qobiliyatiga to'sqinlik qilishi mumkin.

Karlik bolalarning ijtimoiy moslashuviga ham ta'sir qiladi. Ular boshqalar bilan muloqot qilish, do'stlik o'rnatish va ijtimoiy

faoliyatga qo'shilishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Bu ajralib qolish va tushunmovchilik hissini keltirib chiqarishi mumkin. Ular o'zlarining ahvoli va kundalik hayotda duch keladigan qiyinchiliklar tufayli stress, tashvish va depressiyani boshdan kechirishlari mumkin.

Eshitish vositalari, eshitish implantlari yoki boshqa yordamchi texnologiyalar kabi turli tibbiy aralashuvlar kar bolalarning hayot sifatini yaxshilash uchun ishlatalishi mumkin. Ushbu yordamlar ularga tovushlarni yaxshiroq idrok etishga va muloqot va o'rganishda ishtirok etishga yordam beradi.

Alovida pedagogik sharoitlarni hisobga olgan holda, kar bolalarga individual yordam ko'rsatish, ularning har tomonlama rivojlanishi va jamiyatga integratsiyalashuvi uchun ta'lif va qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega.

Eshitish patologiyasining tavsifi. Eshitish analizatorida tovush o'tkazuvchi va tovushni qabul qiluvchi apparatlar farqlanadi. Ovoz o'tkazuvchi apparatga tashqi va o'rta qulqoq, shuningdek ichki qulqoning ba'zi qismlari (labirint suyuqligi va asosiy membrana) kiradi; tovushni idrok etuvchiga – analizatorning boshqa barcha qismlari, korti organining soch hujayralaridan tortib, miya yarim korteksining eshitish mintaqasi asab hujayralari bilan tugaydi.

Ushbu holat eshitish qobiliyati zaif bolalar bilan bevosita bog'liq bo'lib, bu nuqson nafaqat bolaning jismoniy dunyoga nisbatan faolligini buzishga olib keladi, balki bolaning ijtimoiy tajribani o'zlashtirishdagi kechikishini belgilaydigan tizimlarning yorilishi va siljishiga olib keladi. , ham miqdoriy, ham sifat jihatidan. Bu faoliyatning etakchi turlarini yosh bosqichlariga ko'ra o'zlashtirishning sifat jihatidan o'ziga xosligi tomon siljishida namoyon bo'ladi. Ammo, ma'lumki, alovida ta'lif extiyojiga ega bolaning rivojlanishini o'rganish faqat

yetishmovchilik darajasini aniqlash bilan cheklanib qolishi mumkin emas, balki, kompensatsiya va korreksiya jarayonini o'z ichiga olishi kerak. Bu jarayon bolaning qaysi yosh bosqichida bo'lishidan qat'iy nazar, boshlang'ich bosqichdan boshlab, maqsadli tarbiya va ta'larning boshlanishigacha bo'lgan faoliyatning yetakchi turlarini o'zlashtirishda izchil moslashishga qaratilgan bo'lishi kerak. Patogen omillarga quyidagilar: embrionga ta'sir qilish, ona tanasining zaharlanishi, infeksiya, homila shikastlanishi, irsiy moyilliklar kiradi.

Ba'zida tug'ruq paytida yuzaga keladigan ichki qulinqing shikastlanishlari tug'ma rivojlanish nuqsonlaridan ajralib turadi. Bunday zarar homila boshini tor tug'ilish kanali orqali siqib chiqarish yoki akusherlik forsepslarini qo'llash natijasida yuzaga kelishi mumkin. Ichki qulinqing shikastlanishida ba'zan yosh bolalarda boshning ko'karishi (balandlikdan tushish), shu bilan birga, labirintda qon ketishlar va uning tarkibidagi alohida bo'limlarning siljishi kuzatiladi. Bunday hollarda o'rta qulq va eshitish nervi ham bir vaqtning o'zida zararlanishi mumkin. Ichki qulodagi shikastlanishlarda eshitish qobiliyatining buzilishi darajasi shikastlanish darajasiga bog'liq va bir qulqda qisman eshitish qobiliyatini yo'qotishdan to'liq ikki tomonlama karlikka qadar bo'lishi mumkin.

Miyadagi eshitish nervi, yo'llari va eshitish markazlarining kasalliklari

1. Eshitish nervining nevritlari. Bu guruhga nafaqat eshitish nervi tananing kasalliklari, balki spiral nerv tugunini tashkil etuvchi nerv hujayralarining shikastlanishlari, shuningdek korti organi hujayralaridagi ba'zi patologik jarayonlar kiradi.

Spiral nerv tugunlari hujayralarining zaharlanishi nafaqat kimyoviy zaharlar bilan zaharlanganda, balki ko'plab kasalliklarda (masalan, meningit, qizamiq, gripp, tif, parotit)

qonda aylanib yuruvchi toksinlar bilan ta'sirlanganda ham sodir bo'ladi. Kimyoviy va bakterial zaharlar bilan zaharlanish natijasida spiral tugun hujayralarining hammasi yoki bir qismi nobud bo'ladi, keyin eshitish funksiyasi to'liq yoki qisman yo'qoladi.

Eshitish nervi tana kasalliklari ham meningitda yallig'lanish jarayonining miya pardasidan nerv qobig'iga o'tishi natijasida yuzaga keladi. Yallig'lanish jarayoni natijasida eshitish nervi tolalarining hammasi yoki bir qismi nobud bo'ladi va mos ravishda to'liq yoki qisman eshitish halok bo'ladi.

Eshitish funksiyasini buzilishining tabiat shikastlanishning joylashgan joyiga bog'liq. Jarayon miyaning yarmida rivojlanib, eshitish yo'llarini kesib o'tmasdan oldin ushlab turadigan hollarda, mos keladigan qulqoqda eshitish buziladi; agar bir vaqtning o'zida barcha eshitish tolalari olsa, unda bu qulqoqda eshitishning to'liq yo'qolishi, eshitish yo'llarining qisman o'limi bilan, ko'proq yoki kamroq eshitish halokati bilan, mos keladigan qulqoqda kechadi.

Miya yarim po'stlog'ining eshitish sohasi kasalliklari, shuningdek, kasalliklar qon ketishi, o'smalar, ensyefalit bilan yuzaga kelishi mumkin. Bir tomonlama shikastlanishlar ikkala qulqoqda ham eshitish qobiliyatini yo'qotishga olib keladi.

2. Shovqin shikastlanishlari. Shovqinga uzoq vaqt ta'sir qilish bilan, korti organining soch hujayralarida degenerativ o'zgarishlar rivojlanib, asab tolalari va spiral asab tugunining hujayralariga tarqaladi.

3. Havo kontuziyasi. Atmosfera bosimining to'satdan o'tkir tebranishlarida portlash to'lqinining harakati, odatda, kuchli tovush stimulining ta'siri bilan birlashadi. Bu ikkala omilning bir vaqtda ta'siri natijasida eshitish analizatorining barcha qismlarida patologik o'zgarishlar yuz berishi mumkin. Qulqoq

pardasining yorilishi, o'rta va ichki qulqodagi qon ketishlar, korti organi hujayralarining siljishi va yo'q qilinishi natijasida eshitish funksiyasiga doimiy zarar yetadi.

4. Funksional, ya'ni vaqtinchalik eshitish qobiliyatining buzilishi, ba'zida nutqning buzilishi bilan birga kechadi. Funksional eshitish buzilishlariga, kuchli stimullar (qo'rquv) ta'sirida zaif asab tizimiga ega bo'lgan odamlarda rivojlanadigan isterik karlik kiradi. Bolalarda isterik karlik holatlari ko'proq uchraydi. Turli xil harakatli o'yinlar va mashqlardan foydalanish nutqida nuqsoni bor bolalarni jismoniy tarbiyaga faol jalb qilishga yordam beradi, nafaqat jismoniy, balki hissiy va ijtimoiy rivojlanishga ham yordam beradi.

Eshitish va vestibulyar analizatorlari o'rtasidagi munosabat. Eshitish tizimidagi patologik jarayon vestibulyar apparatlarning funksiyasini o'zgartiradi va vestibulyar buzilishlar, o'z navbatida, harakat sohasining shakllanishiga ta'sir qiladi. N.L.Naydenova maxsus tadqiqotdan foydalaniib, eshitishni buzilishi holatlarining 62 foizida vestibulyar disfunksiyaning turli ko'rinishlarini aniqladi.

Vestibulyar analizator tananing va boshning fazodagi holati, harakat tezligi va yo'naliشining o'zgarishi haqidagi signallarni idrok etadi, fazoda idrok etish va oriyentatsiyaning yagona funksiyasini ta'minlaydi va mushak tonusiga doimiy ta'sir qiladi.

Otokinestetik analizatorning uchta o'zaro perpendikulyar yarim doira kanallari va ichki qulq vestibulasi haltalarida joylashgan retseptor apparati – vestibulyar analizator deb ataladi.

Eshitish va vestibulyar analizatorlar o'rtasidagi munosabatlarni ularning yo'naliشining yaqin anatomik birligida kuzatish mumkin: ma'lumki, eshitish tizimining periferik qismi labirintda, periferik reseptorlar joylashgan joyda joylashgan

bo'lib, ular idrok etadilar. Vestibulyar stimullar tananing fazodagi holatini bildiradi.

Vestibulyar va eshitish tizimlarining birligi va umumiy ishlash prinsipi kuzatiladi, bu: labirintda joylashgan eshitish nervi hujayralarining nerv uchlariga o'tganda endolimfa ta'sirida mexanik tebranishlarning nerv impulsiga aylanishi.

Eshitish idrokida vestibulyar tuyg'uning imkoniyatlari haqida gapirish muhimdir. Eshitish analizatori dastlab vestibulyar stimullarni tahlil qilish tizimi sifatida shakllangan va faqat keyinchalik undan tovushlarni tahlil qilish bilan shug'ullanadigan alohida quyi tizim ajratilgan. Biroq, otolit organining ibtidoiy eshitish funksiyalari yo'qolmagan. Neyrofiziologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadi, vestibulyar analizatorning otolitik qismi 16 Gts dan 1000 Gts gacha bo'lgan tovushlarga javob beradi va ba'zi hollarda koxlear faoliyatni almashtirishga qodir. Vestibulyar funksiyaning buzilishi eshitish idrokida ham chuqr, ham kamroq aniq o'zgarishlar bilan kuzatiladi. Eshitish funksiyasining keskin kamayishi bilan vestibulyar apparatlarning yuqori barqarorligi va aksincha, eshitish analizatorining nisbatan yaxshi saqlanishi, vestibulyar apparatlarning funksiyasi keskin kamayishi bilan alohida holatlar mavjud.

Eshitish analizatoridagi patologik jarayon nafaqat vestibulyar analizatorning funksiyasiga, balki karlarni harakat faolligining xususiyatlarini ham aniqlaydigan kinestetik analizatorning funksiyasiga ta'sir qiladi. Vestibulyar barqarorligi past bo'lgan odamlarda turli xil tezlashuvlar, aylanishlar, moyilliklar, harakatlarni muvofiqlashtirish, muvozanat sezilarli darajada buziladi, harakat sifatlarini maksimal darajada namoyon qilish qobiliyati, fazoviy oriyentatsiya pasayadi.

Eshitish idroki vestibulyar analizator kamroq ta'sirlangan qulqoqda yaxshi bo'ladi. Vestibulyar buzilishlar uchun

kompensatsiyaning yuqori darajasini yodda tutish kerak. Kompensatsiya analizatorning markaziy qismlari va uning boshqa sensor tizimlari, ayniqsa ko'rish bilan o'zaro ta'sirga ega.

Vestibulyar tizimning maxsus tanlangan jismoniy mashqlar bilan mashg'ulotlari, vestibulyar analizatorning ichki qulquning buzilishi bilan bog'liq salbiy omillar ta'sirida funksional qarshiligini oshiradi. Kuchli qo'zqatish xususiyati holatida bo'lgan vestibulyar tizim turli xil ogohlantirishlarga (xususan, jismoniy mashqlarga) funksional moslashadi va buning natijasida uning reaktivligi sezilarli darajada kamayadi.

Maktabgacha yoshdagি zaif eshituvchi bolalarning psixofizik rivojlanish xususiyatlari va harakat qobiliyatları

Eshitish va nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirish ishlarini olib borishda asosiy e'tibor bolaning o'ziga xosligini oolib berishga, uning xususiyatlarini har tomonlama o'rganishga asoslangan individual tuzatish (korreksiya) va rivojlanish dasturini yaratishga qaratilishi kerak. Pedagogik ishda rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarga rahbarlik qilish uchun ularning umumiy nazariy qonuniyatlarini bilish kerak.

Bolaga erta tashxis qo'yish va unga yordam berishning asosiy maqsadi – ijtimoiy, hissiy, intellektual va jismoniy o'sishni ta'minlash va uning qobiliyatlarini rivojlantirishda maksimal muvaffaqiyatga erishishdir.

Ammo, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolani o'rganish, faqatgina kamharakatlilik darajasini aniqlash bilan cheklanib qolishi mumkin emas.

Zaif eshituvchi bolaning rivojlanishidagi turli xil buzilishlar nafaqat tovushli ogohlantirishlarga cheklangan kirishning natijasi, balki bu yerda to'g'ridan-to'g'ri natija sifatida nutq

rivojlanishidagi buzilishlar kuzatiladi. Nutq odamlarni tashqi dunyo bilan o'zaro bog'lash vositasi sifatida ishlaydi. Ushbu bog'liqlikning buzilishi, olingen ma'lumotlarning pasayishiga olib keladi, bu esa barcha kognitiv jarayonlarning rivojlanishiga, birinchi navbatda, barcha turdag'i harakatli ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayoniga ta'sir qiladi.

Asosiy patologiya oqibatlar zanjiriga olib kelishi mumkin, ular paydo bo'lgan dan so'ng, yangi buzilishlarning sabablariga aylanadi va birga kechadi. Ma'lum bo'lishicha, bolalarda eshitish qobiliyatining pasayishi 62% hollarda disgarmonik jismoniy rivojlanish, 43,6% - tayanch-harakat tizimining nuqsonlari (skolioz, tekis oyoq va boshqalar), 80% hollarda - harakat rivojlanishining kechikishi bilan birga kechadi. Kar bolalarning 70 foizida ikkilamchi kasalliklar kuzatiladi. Bir qator ishlarda eshitish qobiliyati buzilgan bolalarda tayanch-harakat statik funksiyalarining rivojlanishida kechikish borligi ko'rsatilgan, bu esa, o'z navbatida, ularning shakllanishiga ta'sir qiladi. Analizatorlararo ulanishlar, "yaqin" bo'shliqni toraytiradi. "Turish" (o'tirish, yurish va hokazolarni o'zlashtirish), rivojlanishidagi kechikish, fazoda va obyekt dunyosida oriyentatsiyaning buzilishiga olib keladi.

Kar maktabgacha yoshdagi bolalar eshitish qobiliyatiga ega tengdoshlaridan somatik zaiflik va harakatchanligining yetarli emasligi bilan ajralib turadi. Maktabgacha yoshdagi kar bolalar psixofizik rivojlanishida tengdoshlaridan 1-3 yilgacha orqada qolishlari aniqlangan.

Bolalarda harakat sohasining buzilishi quyidagicha namoyon bo'ladi:

1) rivojlangan asosiy jismoniy sifatlar darajasining pasayishida: tana va qo'llarning asosiy mushak guruhlari kuchi,

tezlik-kuch sifatlari, tezlik sifatlari bo'yicha me'yordan 12% dan 30% gacha orqada qolishi;

2) statik va dinamik muvozanatni saqlash qiyinligida: statik muvozanatda me'yordan 30% gacha, dinamik - 21% gacha orqada qolishi;

3) harakatlarning yetarli darajada aniq muvofiqlash-tirilmaganligi va noaniqligi, bu ayniqsa, yurish mahoratini o'zlashtirishda seziladi;

4) fazoda oriyentatsiyaning nisbatan past darajasida;

5) individual harakatlarni bajarish tezligining sekinlashuvida, eshitish qobiliyatiga ega bolalarga nisbatan umuman harakat faolligi pastligida.

Kar bolalarning kognitiv sohasini rivojlantirish o'ziga xos tarzda davom etmoqda. Ular tug'ilishdan boshlab eshitish diqqatini rivojlantirmaydi. Ushbu bo'shliqning ba'zi bir kompensatsiyasi eshitish analizatorining buzilish darajasiga bog'liq bo'lib, uning faollashishi faqat uzoq va tizimli ish va eshitish idrokinining rivojlanishi bilan bog'liq. Ko'p bolalarda, juda erta, insonning lablariga diqqatni jamlash mavjud bo'lib, bolaning kompensatsiya harakatlarini izlashi haqida xabar beradi, vizual idrokni o'z zimmasiga oladi. Diqqatning barqarorligi faoliyat turiga qarab farq qilishi mumkin. Barcha bolalar uchun umumiy kamchilik - bu e'tiborni o'zgartirish qiyinligidadir.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda e'tibor, idrokni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyati xotira faolligiga sezilarli ta'sir qiladi. Bolalarda vizual idrok ustunlik qiladi, shuning uchun butun yodlash jarayoni asosan vizual tasvirlarga asoslanadi, eshitadiganlar uchun esa bu jarayon eshitish-vizual bo'lib, faol ovozli nutqqa tayanadi.

Shu bilan birga, F.F.Payning va boshqa tadqiqotlarda og'zaki nutqni bissensor (eshitish-vizual) idrok etish monosensor (vizual)ga qaraganda samaraliroq ekanligi aniqlandi. Bu nutqni eshitish - vizual idrok etishning yaxshilanishini o'zaro qo'llab-quvvatlash tufayli yuzaga keladi, degan fikrni aytishga imkon berdi.

Kar bolalarning hissiy rivojlanishidagi kechikish ikkilamchi nuqsonlar bilan bog'liq: obyektiv faoliyatning kam rivojlanligi, kattalar bilan og'zaki va og'zaki bo'lman mulqotning rivojlanishidagi kechikish. Bu bolalar vaziyatni mustaqil tahlil qilish, ushbu faoliyatni amalga oshirish uchun muhim bo'lgan obyektlarning xususiyatlari va munosabatlarini aniqlash imkoniyatiga ega emaslar. Faqat hayotning uchinchi yilda bolalar faoliyatida obyektlarning xususiyatlariga amaliy yo'nalish rivojlna boshlaydi, bu asosan didaktik o'yinchoqlar bilan harakatlarda namoyon bo'ladi. Erta yoshdagi bolalarda predmetli faoliyat yetakchilikka aylanmaydi.

Obyektiv va instrumental faoliyatning rivojlanishidagi kechikish, nafaqat sensorli asosning shakllanishiga ta'sir qiladi, balki eshitish qobiliyati buzilgan bolalarda vizual fikrlashning rivojlanish darajasida ham namoyon bo'ladi. Bolalarda vizual fikrlash shakllarining holatini o'rganish, nafaqat vizual-majoziy, balki vizual-samarali fikrlashni rivojlantirishda ham orqada qolganligini ko'rsatadi. Ularda vizual-samarali, amaliy fikrlashni shakllantirish, umumiy rivojlanish tendensiyalari mavjudligiga qaramay, normal rivojlanayotgan bolalarda uning shakllanishidan sezilarli darajada kechikish va ba'zi miqdoriy va sifat jihatidan farqlar bilan davom etadi.

Eshituvchilarga qaraganda ancha sekinroq, qisqartirilgan yo'nalishga o'tish, vazifani xatosiz bajarishga olib keladi. Ko'pchilik bat afsil yo'nalishga tayanadi. Eshitish qobiliyati

buzilgan bolalarning aksariyati mактабгача yoshda past darajadagi yo'nalishda qoladilar. Mактабгача yoshdagi bolalarning faqat kichik bir qismi vizual-mажозиy muammolarni hal qilishda aks ettirilgan vizual va cheklangan yo'nalishni egallaydi.

Shunday qilib, eshitish qobiliyati buzilgan bolalarda vizual tafakkurning rivojlanish xususiyatlari, shuningdek, idrok etishning rivojlanishi hissiy bilish, amaliy yo'naltirish va obyektiv dunyoda mavjud bo'lgan qonuniyatlarni tushunishning o'ziga xosligidan dalolat beradi.

Eshitish qobiliyati buzilgan bolalarning harakatlaridagi sezilarli sifat farqi shundaki, ularning nutqi vizual muammolarni hal qilish jarayonida ishtirok etmaydi va nutqni rejalashtirish funksiyasi mavjud emas.

Barcha bolalar hissiy yetuklik, his-tuyg'ularning beqarorligi, mimika va ekspressiv harakatlarni tushunishda qiyinchiliklar bilan ajralib turadi. Aniq hissiy pasayish yoki qo'zg'aluvchanlikning kuchayishi holatlari mavjud. Ushbu toifadagi bolalarda o'yin faoliyati ko'nikmalari kam rivojlangan, ular taniqli, o'zlashtirilgan harakatlari o'ynirlarni o'ynashni yaxshi ko'radilar va yangilarini qiyinchilik bilan o'zlashtiradilar. Turli darajadagi aqliy zaifligi bo'lgan bolalarga xos bo'lgan psixofizik xususiyatlarning farqi bilan umumiy xususiyatlar mavjud. Ulardan eng keng tarqalgani o'zini past baholaydi. Ota-onalarga qaramlik, o'z xatti-harakatlari uchun javobgar shaxs sifatida shakllanishini qiyinlashtiradi. Bunga aloqa ko'nikmalarining past darjasasi, og'zaki rivojlanishning kechikishi, passivlik, itoatkorlikning kuchayishi, tashabbusning yetishmasligi, tajovuzkorlik, buzg'unchi xatti-harakatlar ta'sir qiladi.

§1.3. Bolalarning jismoniy rivojlanishi va harakat qobiliyatlarining xususiyatlari

Jismoniy rivojlanish, harakat qobiliyatları, o'rganish qobiliyati va jismoniy faoliyatga moslashishga aqliy nuqsonning og'irligi, birga kechadigan kasalliklar, ikkilamchi kasalliklar, bolalarning aqliy va hissiy-irodaviy sohasining o'ziga xos xususiyatlari ta'sir qiladi.

Yengil aqliy zaif bolalarning psixoharakat rivojlanmaganligi, tayanch-harakat funksiyalari rivojlanishining sekinroq sur'atida, samarasiz harakatlarda, harakat bezovtaligi va asabiylashishda namoyon bo'ladi. Harakat zaif, ongli emas. Qo'llarning mayda harakatika va aniq harakatlari, obyektlarni manipulyatsiya qilish, imo-ishoralar va mimika ayniqsa yomon shakllangan.

O'rtacha aqliy zaif bolalarda 90-100% hollarda harakat buzilishi aniqlanadi. Harakatlarning izchilligi, aniqligi va tezligi buziladi. Ular sekinlashadi, yugurish, sakrash, otish mexanizmining shakllanishiga to'sqinlik qiladi. Hatto o'smirlik davrida ham maktab o'quvchilari qiyinchilik bilan ma'lum bir holatni qabul qiladilar va ushlab turadilar, harakatlarini farqlaydilar, jismoniy mashqlarning boshqa turiga o'tadilar.

Ba'zi bolalarda harakat rivojlanmaganligi letargiya, noqulaylik, harakatlarning past kuchi va tezligida namoyon bo'ladi, boshqalarida harakatchanlikning kuchayishi tartibsizlik, maqsadsizlik, keraksiz harakatlar mavjudligi bilan birlashtiriladi. A.A.Dmitriev tomonidan ishlab chiqilgan "Oligofrenik bolalarning jismoniy rivojlanishi va harakat qobiliyatları buzilishlarining tasnifi"da aqliy zaif bolalarning harakat sohasi buzilishlarining tizimli taqdimoti keltirilgan.

Jismoniy rivojlanishning buzilishi: tana vaznining kechikishi; tana uzunligining kechikishi; qomatning buzilishi; oyoqni

rivojlanishidagi buzilishlar; ko'krak qafasining rivojlanishidagi buzilishlar va uning atrofini kamaytirish; yuqori oyoq-qo'llarning harakati chekhanishi; pastki oyoq-qo'llarlarning harakati chekhanishi; o'pkaning hayotiy quvvati hajmi bo'yicha orqada qolish; bosh suyagining deformatsiyasi; displaziya; yuz skeletining anomaliyalari.

Harakat qobiliyatlarini rivojlantirishdagi buzilishlar:

1) Muvofiqlashtirish qobiliyatlarini buzilishi – fazodagi harakatlarning aniqligi; harakatlarni muvofiqlashtirish; harakatlar ritmi; mushaklarning harakatlarini farqlash; fazoviy oriyentatsiya; vaqtdagi harakatlarning aniqligi; muvozanat;

2) jismoniy sifatlarni rivojlantirishda sog'lom tengdoshlaridan orqada qolish – qo'l, oyoq, bel, qorinning asosiy mushak guruhlari 15-30% ga; kuch, reaksiya tezligi, qo'llar, oyoqlar harakatining chastotasi, bitta harakat tezligi 10-15% ga; tezkor dinamik ishlarni takrorlash uchun, submaksimal quvvatli ish uchun, yuqori quvvatli ish uchun, o'rtacha quvvatli ish uchun, turli mushak guruhlarining statik harakatlariga 20-40% ga; chidamlilik, sakrash va uloqtirishda tezlik-kuch sifatlari 15-30% ga; bo'g'inlardagi moslashuvchanlik va harakatchanlikda 10-20% ortda qolmoqda.

Asosiy harakat buzilishlari:

- makon va vaqtdagi harakatlarning noaniqligi;
- mushaklarning harakatlarini farqlashda qo'pol xatolar;
- harakatlarda epchillik va silliqlikni yo'qligi;
- haddan tashqari qattiqlik va kuchlanish;
- yurish, yugurish, sakrash, uloqtirishda harakat doirasini cheklash.

Harakat ko'nikmalarining o'ziga xos xususiyatlari, birinchi navbatda, yuqori darajadagi tartibga solishning kamchiliklari bilan bog'liq. Bu barcha faoliyat turlari operatsion

jarayonlarining past samaradorligiga olib keladi va nozik tabaqalashtirilgan harakatlar shakllanmasligi, murakkab harakatlarni muvofiqlashtirishning yomonligi, o'rganish qobiliyatining pastligi, shakllangan ko'nikmalarining inertligi, maqsadli harakatlanishdagi kamchiliklarda namoyon bo'ladi, harakatlar, og'zaki ko'rsatmalarga muvofiq harakatlarni bajarish yoki o'zgartirishda qiyinchiliklar mavjud bo'ladi.

Aqli zaif bolalarning jismoniy rivojlanishiha orqada qolish, jismoniy faoliyatga moslashish darajasi nafaqat markaziy asab tizimining shikastlanishiga bog'liq, balki majburiy gipokineziyaning natijasidir. Jismoniy faoliyotning yo'qligi yoki chekdanishi, bolaning tabiiy rivojlanishiga to'sqinlik qiladi, bu organizmaning salbiy reaksiyalari zanjirini keltirib chiqaradi: shemoillash va yuqumli kasalliklarga qarshilik zaiflashadi, zaif yurak shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi. Gipokineziya ko'pincha ortiqcha vaznga, ba'ton esa semirishga olib keladi, bu esa jismoniy faoliyatni yanada kamaytiradi.

Aqli zaif maktab o'quvchilariga xos bo'lgan asab tizimining tez, ayniqsa monoton ish paytida charchoqning kuchaytshi, ish samaradorligining va chidamlilikning pasayishini qayd etadi. Ko'pgina bolalarda yurak-qon tomir, nafas olish, endokrin tizim, ichki organlar, ko'rish, eshitish, tishlashning tug'ma strukturaviy anomaliyalari, gotik tanglay, sonning tug'ma dislokasiyusi, shuningdek, bir nechta kombinatsiyalangan nuqsonlar mavjud bo'ladi.

Tayanch-harakat tizimidagi ikkilanchi buailishlar orasida oyoq deformasiyalari, umurtqali buzilishlar (skolioz, kifoskolioz, kifoz, lordoz), tana nomutanosibligi, funksional qorin pressini yetishmovchiligi, parezlar, bo'yinning egriligi mavjud. Kichik displastik belgilar aqliy zaif maktab o'quvchilarining 40 foizida uchraydi.

9-10 yoshli bolalarning jismoniy rivojlanishini baholash, N.A.Kozlenko ta'kidlaganidek, bolalarning 45 foizida jismoniy rivojlanishi zaif, o'rtacha uyg'un rivojlanish - 25%, o'rtacha darajadan past rivojlanish - 23%, haddan tashqari nomutanosiblik - 7%. Kichik mакtab o'quvchilarining 55 foizida yurish va yugurish buзilgan, 36 foizida barmoqlarning alohida harakatlarini (tugmalarni taqish, bog'lash, kamon bog'lash) bajarishda qiyinchiliklar mavjud. 5-9-sinf o'quvchilari harakat qobiliyatları darajasini oshiradilar, barmoqlar harakatida buзilishlar sezilarli darajada tekislanadi, og'zaki ko'rsatmalarga muvofiq vazifalar yaxshiroq bajariladi. Muallifning ta'kidlashicha, jismoniy sifatlarning rivojlanish darajasi beharakat intellektual nuqsonga bog'liq. Shunday qilib, chidamlilikni rivojlantirishda yengil aqliy zaif bolalar sog'lom tengdoshlaridan 11% ga, o'rtacha aqliy zaiflikda - 27% ga, og'ir-taxminan 40% ga kam. Taxminan bir xil ma'lumotlar mushaklar kuchini rivojlantirishda olingen, ammo jismoniy rivojlanishi yuqori bo'lgan mакtab o'quvchilari ba'zan o'sha yoshdag'i sog'lom o'smirlardan kam emas.

Aqliy zaif bolalarda tezlik sifatlarini rivojlantirishda, ayniqsa harakat reaksiyasi vaqtida sezilarli kechikish qayd etilgan. B.V.Sermeyev bu faktni harakat analizatorini shakllanishining kechikishi bilan izohlaydi, uning rivojlanishi 15-16 yoshda, ya'ni sog'lom odamlarga qaraganda 2-3 yil kechroq tugaydi. E.P. Bebrishev tezlik sifatlaridagi kechikish 6-7 yil ekanligini aniqladi va buni asabiy jarayonlarning past harakatchanligi bilan izohladi. Shu bilan birga, muallifning ta'kidlashicha, suzish bilan muntazam shug'ullanadigan aqliy zaif bolalar tezlik fazilatlari bo'yicha o'sha yoshdag'i ommaviy mакtab o'quvchilaridan atigi 1-2 yilga ortda qolishadi. Asosiy jismoniy qobiliyatlarning rivojlanishi (kuch, tezlik, chidamlilik) yoshga bog'liq rivojlanishning umumiyligiga bo'ysunadi, ammo aqli

zaif maktab o'quvchilarida ularning rivojlanish tezligi past bo'ladi va sezgir davrlar 2-3 yildan keyin boshlanadi.

Aniqlanishicha, aqliy zaif bolalarning harakat sohasining asosiy buzilishi harakatlarni muvofiqlashtirishning buzilishi hisoblanadi. Oddiy va murakkab harakatlar bolalarda qiyinchilik tug'diradi: bir holatda, har qanday harakat yoki holatni aniq takrorlash kerak, ikkinchisida - masofani vizual o'lhash va kerakli nishonga tushirish, uchinchida - o'lhash va bajarish, sakrash, to'rtinchisida - berilgan harakat ritmini aniq takrorlash. Ularning har biri makon va vaqtdagi tana bo'g'inlari harakatlarining muvofiqlashtirilgan, ketma-ket va bir vaqtning o'zida kombinatsiyasini, ma'lum bir harakat, trayektoriya, amplituda, ritm va harakatning boshqa xususiyatlarini talab qiladi. Biroq, miya tuzilmalarining turli darajadagi organik shikastlanishi, tartibga soluvchi va ijro etuvchi organlarning mos kelmasligi, zaif hissiy afferentatsiya tufayli aqliy zaif bola bir vaqtning o'zida barcha xususiyatlarni nazorat qila olmaydi. Muvoifiqlashtirish qobiliyatları aqliy nuqsonları bo'lgan bolalarda nuqsonli asosga ega bo'lgan biologik va aqliy funksiyalar bilan tartibga solinadi (buzilish qanchalik jiddiy bo'lsa, muvofiqlashtirishdagi xatolar shunchalik qo'polroq bo'ladi).


Aqliy zaiflikning asoratlanmagan shakli bo'lsa, nozik harakat mahoratini talab qiladigan murakkab harakatlarning buzilishi, yetakchi nuqsonning ajralmas qismi bo'lib, aqliy nuqson bilan bir xil mexanizmlar bilan belgilanadi, ya'ni, korteks miyaning analitik-sintetik faoliyati hisoblanadi. Ushbu buzilishlar aqliy zaif bolalarga murakkab muvofiqlashtiruvchi harakat harakatlarini o'rgatishda asosiy to'siqdir.

O'qituvchi amaliy faoliyatida aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarda muvofiqlashtirish qobiliyatining asosiy turlarini rivojlantirishning qulay davrlarini bilish muhimdir.

II BOB. IMKONIYATI CHEKLANGAN MAK TABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING JISMONIY TARBIYA MASHG'U- LOTINI TUZISHDA "OHISTA QADAM" TABAQALASHTIRILGAN VARIATIV DASTURINI QO'LLASH USLUBIYATI

§ 2.1. Imkoniyati cheklangan maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy sifatlari rivojlanishi dinamikasi

Davlat ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'limgash tashkilotlarining 50 nafar tarbiyachi va jismoniy tarbiya yo'riqchilari bilan mashg'ulotlarda sport anjomlaridan foydalanish hamda nozologiyasiga tabaqalashtirilgan o'quv mashg'ulotarini tashkil qilish va o'tkazish uslubiyati bo'yicha anketa so'rovnomalari o'tkazildi va tahlil qilindi, uning natijalari asosida imkoniyati cheklangan maktabgacha yoshdagi bolalar bilan mashg'ulotlar o'tkazish strukturasi aniqlanganligi bayon qilingan.




**2.1-rasm. Murabbiylarning jihozlardan
foydalanish bo'yicha olingan so'rovnomaga
bergan javoblari tahlili (ball).**

Tadqiqotimizda bolalarning jismoniy mashqlar davomida turli xil jismoniy vositalardan foydalanishini o'rganish maqsadida o'tkazilgan jismoniy tarbiya yo'riqchilari va o'qituvchilarining ($n=50$) anketa so'rovnomasini natijalari shuni ko'rsatadi, mashg'ulot davomida foydalanadigan jismoniy tarbiya vositalarini 5 ballik tizimda belgilaydigan bo'lsak, anketa so'rovnoma natijasida to'plar - o'rtacha ball - 5 balldan 3,4 ballni; ikkinchi o'rinni arqon bilan sakrash - 3,1 ball; o'qituvchilar kamdan-kam hollarda halqadan foydalanadilar - 2,8 ball; keglilar - 2,6 ball va kubiklar - 2,1 ballni tashkil qildi (2.1-rasmga qarang).

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadi, harakati cheklanganligi sabab tarbiyalanuvchilarning jismoniy tarbiya asbob-uskunalaridan kam foydalanishi, ustozlarning shogirdlari jarohatlanishidan qo'rqliki hamda ularni harakatli o'yinlarga va mashqlarga bo'lgan tabiiy ehtiyojini hisobga olmaslik, o'z navbatida kamharakatlilik xavfini oshiradi.

Biz variativ dasturni yaratishda o'qituvchilardan Davlat dasturining qaysi bo'limlarini ko'proq moslashtirishimiz kerakligini so'raganimizda: 45% respondentlar - "harakatli o'yinlar", 9% - «shart emas», 32% - «maxsus mashqlar» deb hisoblaydilar. Aytish joizki, so'rovnomada ishtirok etganlarning 14 foizi javob berishga qiyinalishlarini e'tirof etishgan (2.2-rasmga qarang).

Eshitish va nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirish ishlarini olib borishda asosiy e'tibor bolaning o'ziga xosligini ochib berishga, uning xususiyatlarini har tomonlama o'rganishga asoslangan individual tuzatish va rivojlanish dasturini yaratishga qaratilishi kerak. Pedagogik ishda rahbarlik qilish uchun rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolaning umumiy nazariy qonuniyatlarini bilish kerak.



2.2-rasm. So'rovnomaada ishtirok etgan respondentlar (murabbiylar)ning javoblari tahlili (%).

Bolaga erta tashxis qo'yish va unga yordam berishning asosiy maqsadi, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolaning ijtimoiy, hissiy, intellektual va jismoniy o'sishini ta'minlash va uning qobiliyatlarini rivojlantirishda maksimal muvaffaqiyatga erishishdir.

Ammo, ta'kidlanganidek, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolani o'rganishda faqat yetishmovchilik darajasi va zo'ravonligini aniqlash bilan cheklanib qolish kerak emas, balki, albatta, kompensatsiya jarayonini ham o'z ichiga olishi lozim.

Maxsus ta'limga muhtoj bo'lgan bola zamonaviy jamiyat uchun yangi tushunchadir. Maxsus ta'limga muhtoj bola nogiron bola bo'lib, buning natijasida unga standart dasturlardan farqli bo'lgan maxsus ta'lim dasturlari qo'llanilishi kerak. Bu, shuningdek, turli toifadagi bolalarni, jumladan, turli xil nutq buzilishlari, zaif ko'ruchchi, yarim miya falajli, orqa miya falajli, tayanch harakati buzilishiga ega (amputant) va aqliy zaif bolalarni ham o'z ichiga oladi.

Nutq buzilishlarining tuzilishidagi noverbal alomatlar orasida bolaning ilk yoshdan boshlab obyektiv dunyonи


o'zlashtirishida qiyinchilikka olib keladigan harakat faoliyati buzilishi kuzatiladi. Nutq buzilishi bo'lgan mактабгача yoshdagi bolalarning ko'pchiligidagi, maxsus tadqiqotlar natijasida, harakat, yirik va mayda harakatika funksiyalarining yetarli darajada shakllanmaganligi aniqlandi. Bu borada olib borilgan ishlarning natijalari asosida, kichik yoshdagi bolalarning harakat faoliyati yaxshi rivojlanmasa, uning nutqi ham yetarli darajada rivojlanmasligi isbotlangan.

Tadqiqot jarayonida davlat ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan mактабгача ta'lif tashkilotlarining 5-6 yoshli o'g'il va qiz bolalaridan tashkil topgan tajriba va nazorat guruhlarida yuqori bobda ko'rsatib o'tilgan testlar yordamida dastlabki me'yorlar qabul qilindi. Imkoniyati cheklangan mактабгача yoshdagi bolalarda tezkorlik sifatining rivojlanganligini baholash "10 m ga yugurish" testi yordamida amalga oshirildi:

tiflo-tajriba guruhidagi imkoniyati cheklangan bolalar 10 m ga yugurish bo'yicha $9,09 \pm 0,96$; tiflo-nazorat guruhidagi bolalar esa $10,54 \pm 0,95$ s;

oligofren-tajriba guruhidagi imkoniyati cheklangan mактабгача yoshdagi bolalar ushbu testni $8,83 \pm 0,65$; oligofren-nazorat guruhidagi bolalar esa $8,44 \pm 0,63$ s;

surdo-tajriba guruhidagi bolalar $8,96 \pm 0,79$; nazorat guruhidagilar esa $8,53 \pm 0,72$ s ichida bosib o'tdilar. Dastlabki natijalarga ko'ra, tajriba va nazorat guruhidagi imkoniyati cheklangan mактабгача yoshdagi bolalarning tezkorligi orasida deyarli farq kuzatilmadi. Nozologiyalar bo'yicha tajriba va nazorat guruhlarining 10 m ga yugurishdagi ko'rsatkichlari orasidagi farq 0,53 s ga teng bo'ldi, bu sensitiv davrga xosdir (2.3-rasmga qarang).




2.3-rasm. Pedagogik tadqiqot boshida 10 m ga yugurish bo'yicha tajriba va nazorat guruhlari bolalarining jismoniy tayyorgarligi tahlili (s).

Imkoniyati cheklangan mактабгача yoshdagi bolalarni chaqqonlik jismoniy sifatini baholash uchun buyumlar orasidan "ilon izi" bo'ylab yugurish bo'yicha tiflo-tajriba guruhidagi natijasi $9,44 \pm 0,91$; tiflo-nazorat guruhidagi bolalar esa $10,21 \pm 0,86$ s;


oligofren-tajriba guruhidagi imkoniyati cheklangan mактабгача yoshdagi bolalar ushbu testni $9,14 \pm 0,55$; oligofren-nazorat guruhidagi bolalar esa $9,15 \pm 0,69$ s;

surdo-tajriba guruhidagi bolalar $9,14 \pm 0,91$; nazorat guruhidagilar esa $9,56 \pm 0,81$ s ichida bosib o'tdilar (3.4-rasmga qarang).




2.4-rasm. Imkoniyati cheklangan mактабгача ўоҳдаги боловарнинг "ilon izi" bo'ylab yugurishda tadqiqotdan oldingi test natijалари dinamikasi.

Imkoniyati cheklangan maktabgacha yoshdagi bolalarning **tezkor-kuch** sifatlarining rivojlanish darajasini baholash, "turgan joydan uzunlikka sakrash" nazorat mashqi yordamida amalga oshirildi. Tiflo bolalarda tezlik-kuch sifatlari ko'rsatkichi tajriba guruhida – $94,74 \pm 9,45$ sm ni; nazorat guruhida esa – $99,16 \pm 8,88$ sm ni tashkil qildi. Oligofren-tajriba guruhidagi bolalarda natija – $93,69 \pm 7,93$ sm ni, nazorat guruhida esa – $97,84 \pm 8,38$ sm ni va surdo-tajriba guruhida – $98,44 \pm 9,83$ sm ni, nazorat guruhida esa – $94,54 \pm 9,15$ sm ni tashkil etdi. Tajriba va nazorat guruhi bolalarining ko'rsatkichlari orasidagi farq 1,56 sm ni tashkil etadi, bu sensitiv davrga mos keladi (3.5-rasmga qarang).




2.5-rasm. Imkoniyati cheklangan maktabgacha yoshdagи bolalarning "joyidan turib uzunlikga sakrash"da tadqiqotdan oldingi test natijalari dinamikasi.

Shuningdek, turgan joydan balandlikka sakrashda tezkorkuch surdo-tajriba guruhida natija – $20,89 \pm 2,19$ sm; nazorat guruhidagilarda esa – $21,95 \pm 2,31$ sm natijani qayd etishdi; tiflo-tajriba guruhidagi bolalarda – $25,08 \pm 2,28$ sm; tiflo-nazorat guruhidagilarda – $23,95 \pm 2,51$ sm; oligofren-tajriba guruhidagi tarbiyalanuvchilarda ushbu test natijasi – $21,79 \pm 2,5$ sm; nazorat guruhidagi bolalarda esa – $23,27 \pm 2,22$ sm ga teng bo'ldi. Tajriba va nazorat guruhlaridagi tarbiyalanuvchilarning o'zaro natijalarida deyarli farq yo'qligi pedagogik tajribani davom ettirishga imkoniyat yaratdi, farq 1.5 sm ni tashkil etdi (3.6-rasmga qarang).




2.6.-rasm. Imkoniyati cheklangan maktabgacha yoshdagи bolalarning "joyidan turib uzunlikga sakrash"da tadqiqotdan oldingi test natijalari dinamikasi.

Yelka kamari va qo'llarning kuch sifatlarini baholash "150-200 gr li qum haltachasini uloqtirish" testi yordamida amalga oshirildi. Tiflo bolalarda qum haltachasini uloqtirish ko'rsatkichi tajriba guruhida – $246,82 \pm 28,97$ m; nazorat guruhida esa – $257,97 \pm 24,49$ m; surdo-tajriba guruhida esa natija – $285,93 \pm 22,24$ m; nazorat guruhida – $277,38 \pm 20,35$ m; oligofren-tajriba guruhida natija – $265,84 \pm 16,96$ m va nazorat guruhida esa natija – $271,4 \pm 20,61$ m ni tashkil etdi. (3.7-rasmga qarang). Natijalarni yaxshilash uchun yelka kamarining tezlik-kuch sifatlarini yaxshilashga qaratilgan maxsus vositalar va uslublarni qo'llash zarurligi aniqlandi.



2.7-rasm. Imkoniyati cheklangan maktabgacha yoshdagi bolalarning "qum haltachasini uzoqlikka otish" bo'yicha tadqiqotdan oldingi test natijalari dinamikasi.

Koordinatsion sifatni aniqlash uchun imkoniyati cheklangan maktabgacha yoshdagi bolalarda "qum haltachasini nishonga otish" testidan foydalanildi. Bunda tarbiyalanuvchilar 1,5 m masofadan 5 ochkolik devorga chizilgan 5 halqali nishonga otishadi, markazga tushsa, 5 ochko, markazdan uzoqlashishiga qarab ketma-ket ochko kamayib boradi. Tiflo-tajriba guruhidagi tarbiyalanuvchilar – $1,15 \pm 0,13$ ga teng natijani qayd etgan bo'lsa, tiflo-nazorat guruhidagi tarbiyalanuvchilar – $1,22 \pm 0,13$ ga teng natijani ko'rsatishdi. Surdo-tajriba guruhida esa ushbu test bo'yicha $1,48 \pm 0,15$ ga teng natija qayd qilingan bo'lsa, surdo-nazorat guruhida – $1,41 \pm 0,14$ daqiqaga teng bo'ldi. Oligofren-tajriba guruhida ham bu ko'rsatkich $1,02 \pm 0,07$, oligofren-nazorat guruhidagi natija esa $0,94 \pm 0,06$ ga teng natijani ko'rsatdi. Ushbu ko'rsatkichlar tayyorgarlikning past darajasiga mos kelganligi sababli, jismoniy sifatlarni yaxshilash uchun zarur vosita va usullarni qo'llash taqozo etiladi (2.8- rasmga qarang).



2.8-rasm. Imkoniyati cheklangan maktabgacha yoshdagi bolalarning "qum haltachasini nishonga otish" bo'yicha tadqiqotdan oldingi test natijalari dinamikasi.


Egiluvchanlik sifatini baholashda, imkoniyati cheklangan maktabgacha yoshdagi bolalarda "tik turgan holatda gimnastika o'rindig'ida oyoq tizzalarini bukmay oldinga egilish" (oyoq ostidan pastga hisoblanadi) testi qo'llanildi. Ushbu test natijalarining o'sish sur'ati farqi katta bo'lmadidi.

Tiflo-tajriba guruhidagi bolalarda $1,96 \pm 0,21$ sm; nazorat guruhida – $2,12 \pm 0,25$ sm; surdo-tajriba guruhida – $2,23 \pm 0,21$ sm natija qayd etilgan bo'lsa, surdo-nazorat guruhida – $2,15 \pm 0,2$ sm; oligofren-tajriba guruhida – $1,56 \pm 0,15$ sm va nazorat guruhida – $1,47 \pm 0,14$ sm ni tashkil etdi. Chamasi, egiluvchanlikni rivojlantirishga qaratilgan yuklamalar yetarli bo'lмаган (3.9-rasmga qarang).

Imkoniyati cheklangan maktabgacha yoshdagi bolalarda mayda motorika sifatini aniqlash uchun "rangli zariklarni qutiga bittalab 20 s davomida solish" testi qabul qilindi. Ushbu test o'ng va chap qo'llarda ham bajarildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, tiflo-tajriba guruhlaridagi bolalar mos ravishda o'ng qo'lda –

$12,52 \pm 1,37$ dona va chap qo'lda $-13,14 \pm 1,27$ donaga teng natijani ko'rsatishdi; tiflo-nazorat guruhlarida esa o'ng qo'lda $-11,67 \pm 1,35$ dona va chap qo'lda $-12,32 \pm 1,31$ donaga teng natijani ko'rsatishdi;

Tizzalarini bukmagan holda egilish




2.9-rasm. Imkoniyati cheklangan bolalarning tadqiqotgacha "tik turgan holatda gimnastika o'rindig'ida oyoq tizzalarini bukmay oldinga egilish" testi natijalari dinamikasi.

surdo-tajriba guruhlaridagi bolalar mos ravishda o'ng qo'lda $-13,67 \pm 1,21$ dona va chap qo'lda $-13,49 \pm 1,43$ donaga teng natijani ko'rsatishgan bo'lsa, surdo-nazorat guruhlarida esa o'ng qo'lda $-14,42 \pm 1,54$ dona va chap qo'lda $-14,13 \pm 1,22$ donaga teng natijani ko'rsatishdi; oligofren-tajriba guruhlaridagi bolalar mos ravishda o'ng qo'lda $-13,87 \pm 1,32$ dona va chap qo'lda $-13,38 \pm 0,89$ donaga teng natijani ko'rsatishgan bo'lsa, oligofren-nazorat guruhlarida o'ng qo'lda $-14,53 \pm 1,41$ dona va chap qo'lda $-14,04 \pm 0,91$ donaga teng natijani ko'rsatishdi (3.10-rasmga qarang).

Aniqlanishicha, o'ng va chap qo'lda qayd etilgan natijalar bir-biriga yaqin va rivojlanishi bir xilda kechgan.

Pedagogik tajribagacha tajriba va nazorat guruhlaridagi barcha yosh bosqichlarida tanlab olingan test me'yorlari bo'yicha olingan natijalarda deyarli katta farq sezilmadi (2.1 - jadvalga qarang).



2.10-rasm. Imkoniyati cheklangan bolalarning tadqiqotgacha "rangli shariklarni o'ng va chap qo'lda qutiga solish" testi natijalari dinamikasi.

2.1-jadval

Nozologik guruhlarning tajribadan oldingi test sinovlari bo'yicha ko'rsatkichlari

Testlar	Nozologiyalar	Guruhsiz	Tajribadan oldingi natija	Farqi
Joyidan turib uzunlikka sakrash	Tiflo	1 guruh	99,16	4,42 sm
		2 guruh	94,74	
Surdo	Surdo	1 guruh	94,54	3,9 sm

		2 guruh	98,44	
10 metrga yugurish	Aqli zaif	1 guruh	97,84	4,15 sm
		2 guruh	93,69	
10 metrga yugurish	Tiflo	1 guruh	9,65	0,56 s
		2 guruh	9,09	
	Surdo	1 guruh	8,53	0,43 s
		2 guruh	8,96	
	Aqli zaif	1 guruh	8,44	0,39 s
		2 guruh	8,83	

2.1-jadval davomi

Joyidan turib balandlikka sakrash	Tiflo	1 guruh	23,95	1,13sm
		2 guruh	25,08	
	Surdo	1 guruh	21,95	1,06 sm
		2 guruh	20,89	
	Aqli zaif	1 guruh	23,27	1,48 sm
		2 guruh	21,79	
Qum haltachasini uzoqlikka otish	Tiflo	1 guruh	257,97	11,15 sm
		2 guruh	246,82	
	Surdo	1 guruh	277,38	8,55 sm
		2 guruh	285,93	
	Aqli zaif	1 guruh	271,47	5,63 sm
		2 guruh	265,84	
Qum haltachasini nishonga otish	Tiflo	1 guruh	1,22	0,07 ball
		2 guruh	1,15	
	Surdo	1 guruh	1,41	0,07 ball
		2 guruh	1,48	
	Aqli zaif	1 guruh	0,94	0,08 ball
		2 guruh	1,02	
Buyumlar orasidan "ilon izi" bo'ylab yugurish	Tiflo	1 guruh	10,21	0,77 s
		2 guruh	9,44	
	Surdo	1 guruh	9,56	0,42 s
		2 guruh	9,14	
	Aqli zaif	1 guruh	8,47	0,42 s
		2 guruh	8,05	
Rangli zariklarni qutiga solish	Tiflo	1 guruh	o'ng qo'lda 11,67 chap qo'lda 12,32	O'ng qo'lda 0,85
		2 guruh	o'ng qo'lda 12,52 chap qo'lda 13,14	
				Chap qo'lda 0,82

Tananing oldinga egilishi	Surdo	1 guruh	o'ng qo'lda 14,42 chap qo'lda 14,13	O'ng qo'lda 0,75 Chap qo'lda 0,64
		2 guruh	o'ng qo'lda 13,67 chap qo'lda 13,49	
	Aqli zaif	1 guruh	o'ng qo'lda 14,53 chap qo'lda 14,04	O'ng qo'lda 0,66 Chap qo'lda 0,66
		2 guruh	o'ng qo'lda 13,87 chap qo'lda 13,38	
	Tiflo	1 guruh	2,12	0,16 sm
		2 guruh	1,96	
	Surdo	1 guruh	2,15	0,08 sm
		2 guruh	2,23	
	Aqli zaif	1 guruh	1,47	0,09 sm
		2 guruh	1,56	

Tadqiqot boshida tajriba va nazorat guruhi sinaluvchilarini nozologiyasi va jismoniy imkoniyatlarini teng bo'lishiga harakat qilindi va maxsus jismoniy sifatlarini rivojlantirish darajasini baholaydigan pedagogik teslarni kuzatish natijasida unchalik ham katta farq sezilmadi.

§ 2.2. Imkoniyati cheklangan maktabgacha yoshdag'i bolalar uchun ishlab chiqilgan "Ohista qadam" variativ tabaqa lashtirilgan dasturini qo'llash uslubiyati

Imkoniyati cheklangan maktabgacha yoshdag'i bolalarni jismoniy tarbiyalash amaliyotida jismoniy sifatlarni hamda harakat ko'nikma va malakalarini takomillashtirishga yordam beruvchi turli xil vosita va uslublar qo'llaniladi. Imkoniyati

cheklangan maktabgacha yoshdagi bolalarning nozologiyasi bo'yicha rivojlantiruvchi va takomillashtiruvchi mashqlar majmuasi asosida ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni davlat talablariga javob beradigan jismoniy tarbiya dasturidagi nazorat me'yorlarini bajarishga tayyorlash bo'yicha "Ohista qadam" tabaqalashtirilgan variativ mashg'ulotlar dasturini ishlab chiqdik (2.11-rasmga qarang). Uni amalga oshirish uchun tarbiyalanuvchilarining tayyorgarligi aniqlab olindi. Shundan so'ng tarbiyalanuvchilarining mashg'ulotlari jarayoniga rivojlantiruvchi va yaqinlashtiruvchi mashqlar joriy etildi.

Ixtisoslashtirilgan bog'cha tarbiyalanuvchisining hayot davrining har bir bosqichi, o'sish-rivojlanish xususiyatlari va ehtiyojlariga ko'ra o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bolaning o'sib, ulg'ayishida jismoniy faollik, asosiy harakatlar tartibi muhim hisoblanib, aynan shu jarayonlar metodik jihatdan to'g'ri va tizimli ravishda tashkillashtirilsa, bola shaxsining jismoniy taraqqiy etishiga xizmat qiladi. Davlat ixtisoslashtirilgan ko'p tarmoqli maktabgacha ta'lif tashkilotlarida ushbu vazifalar tizimli amalga oshirilishi zarur bo'lib, uning dastlabki bo'g'ini - bu nozologiya bo'yicha jismoniy tarbiya mashgulotlarini to'g'ri tashkillashtirishdir.

Imkoniyati cheklangan maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy sifatlarini tarbiyalash uchun, pedagogik tajribalar jarayonida, parallel ravishda ularning mayda, yirik harakatikalarini va sensomotorikasini rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar amalga oshirildi. Ushbu maktabgacha yoshdagi bolalarda egiluvchanlik, tezkorlik, chaqqonlik jismoniy sifatlarini rivojlantiruvchi hamda fazo-vaqt va makonga moslashtiruvchi jismoniy mashqlar va harakatli o'yinlarni qo'llash eng ahamiyatlisi hisoblanadi. 5-7 yoshli imkoniyati cheklangan maktabgacha yoshdagi bolalarda mayda va yirik motorika hamda sensomotorikalarini

rivojlantirish muammolari dolzarbligini hisobga olib, biz jismoniy tarbiya mashg'ulotlari tuzilishining ayrim qismlariga nozologiya bo'yicha tabaqalashtirish uslubiyatini qo'llash imkoniyatlarini o'rganishga kirishdik.

Variativ mashqlar majmui nozologiya bo'yicha jismoniy rivojlanish va tayyorgarlikni ta'minlashga yo'naltirilgan va tanlangan mashqlardan iborat (2.2-jadvalga qarang).

Variativ mashqlar asosini gimnastika, yengil atletika va sport o'yinlarining ayrim elementlari tashkil etadi. Bolalarning kun tartibiga bunday mashqlarni kiritish orqali nofaol mushaklarni ishlatishga erishiladi. Tananing barcha mushaklari jismoniy faoliyatga jalb etilgandan so'ng, tana qizib, mushaklar tonusi oshadi, teri elastiklashadi, tananing harakatlarini nazoratga olish va muvofiqlashishiga yordam beradi.

Bundan tashqari, to'g'ri qad-qomatni shakllantirishga, emotsiyal kayfiyatni ko'tarishga, ikkilamchi og'ishlarni profilaktika qilishga ta'sir ko'rsatadi hamda bolalarning fiziologik holatini yaxshilaydi.

Biz, tadqiqot ishimizda quyidagi nozologiyalarga ega bolalarni qamrab oldik: zaif ko'ruchchi (tiflo), zaif eshituvchi (surdo), diqqatini to'plashga qiyaluvchi (oligofren) hamda nutqiylar rivojlanishida nuqsoni bor bolalar.

Ushbu mashqlar mashg'ulotlarning haftalik jadvali asosida berilib, reglamentdan va mashg'ulot gigiyenasidan kelib chiqqan holda tashkil etilgan. Reglament esa, "Ilk qadam" davlat o'quv tuzilgan.

2.2-jadval

Imkoniyati cheklangan matabgacha yoshdag'i bolalarning jismoniy tayyorlarligini oshirish uchun maxsus mashqlar majmuasi

Tezlik (tezkor-kuch) jismoniy sifatini rivojlantirish uchun				Nazorat mashqi
1.	Tabaqalashirilgan harakatlari oyinlar Variativ mashqlar	Koptokni quvib yet	Yugurib kelning oldimga	O'z juftingni top
	1. Turgan joyida yugurish. 2. 6-8 m ga yugurish. 3. Yulduzcha sakrash. 4. Quyoncha sakrash.	1. Signal bo'yicha yo'nalishni ozgartirish bilan yugurish. 2. Bayroqchani sherigiga yetkazish. 3. Bir va ikki oyoqda sakrash. 4. Kiyikcha sakrash.	1. Sekin va tezga almashtrib chiziq bo'ylab yugurish. 2. Bayroqchani olib kelishga yugurish. 3. Qurbaqacha sakrash. 4. To'p qo'llarda oldingga sakrash.	10 m ga yugurish; joyidan turib uzunlikka sakrash; joyidan turib balandlikka sakrash.
2.	Tabaqalashirilgan harakatlari oyinlar Variativ mashqlar	"Kegli", "To'p doirada"	"Shiqildooqqacha emaklab kel", "Qushlar janubga uchmoqda"	"Chumchuq-lar va mushuk", "Paxmoq kuchuk"
	Gimnastika o'rindig'ida qo'llar bilan oldinga sirpanish.	Gimnastik ishlash, tayoqchalar va halqaar bilan ishslash.	To'dirma to'p bilan mashqlar bajarish.	qum hالتاچاسини uzeqilikkha otish; qum hالتاچасини nishonga otish.
3.	Tabaqalashirilgan harakatlari oyinlar	"Koptok maktabi", "Turma g'oz"	"Guyon yuvinayapti", "To'pnilib ol"	"Gaplashuv-chi to'p", "Nima yashirilgan?"
	Variativ mashqlar	"Ilon izi" bo'lib yugurish	mokkisimon yugurish	"Zo'r qo'llar" mashqi
4.	Variativ mashqlar	URM majmuasi ko'prikl, shpagat	mushuk-cha, shpagat	buyumlar orasidan "ilon izi" bo'yab yugurish; rangli zariklarni qutiga solish.
		Egiluvchanlik jismoniy sifatini rivojlantrish uchun	ko'bra, "Klim oлади- yo shug'нани-yo"	Egiluvchanlik

Izoh: Jismoniy mashqlar yuklamasi imkoniyati cheklangan surdo maktabgacha yoshdag'i bolalar uchun ko'rsatmalar bilan tartibga solinadi.

Maktabgacha ta'lif tashkilotlari uchun davlat o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagil bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq ishlab chiqilgan me'yoriy-huquqiy hujjat bo'lib, unda maktabgacha ta'lif tashkilotining maqsad va vazifalari, ta'lif va tarbiya jarayonining maqsad va tamoyillari, shuningdek, bolaning keyingi ta'lif bosqichiga o'tishidagi tayanch kompetensiyalari belgilangan.

Dasturda belgilanishicha, inklyuziv yo'nalishdagi ta'lif va tarbiya jarayoni davlat o'quv dasturiga muvofiq amalga oshiriladi, uning asosida individual-moslashtirilgan dasturlar ishlab chiqilishi mumkin. Bunday individual inklyuziv dasturda alohida ta'lif olish ehtiyojlari bo'lgan har bir bolaning ta'lif olishi, rivojlanishi, ishtiroki va farovonligi uchun barcha mumkin bo'lgan to'siqlarni bartaraf etadigan o'quv muhiti va o'qitish usullarini moslashtirish zarurligi keltirilgan (2.3-jadvalga qarang).

2.3-jadval

Tiflo nozologiyasi uchun variativ mashqlar majmu'i

Nº	Mashqlarning nomlanishi	Ta'sir ko'rsatishi
1.	Gimnastika tayoqchalari ustidan yurish (rels)	Masofani taqsimlash, farqlash va ko'z bilan chamalashni rivojlantiradi.
2.	Darboz yurish mashqi	Muvozanatni va harakat aniqligini rivojlantiradi.
3.	Labirint mashqi	Fazoda yo'nalishni mo'ljalga ola bilish, harakatlarni muvofiqlashtirishni rivojlantiradi.
4.	Halqa bo'ylab yugurish	Mayda harakatikalarni rivojlantiradi (qo'l harakatikasi narsalarni ushslashdan to juda kichik harakatlarga qadar).
5.	Mokkisimon yugurish (5 m)	Muvozanat saqlash va mayda harakatikalarni rivojlantiradi.
6.	Bir oyoqda sakrash	Harakat izchilligi va oyoq mushaklar kuchini rivojlantiradi.
7.	Qurbaqacha sakrash	Koordinatsion harakatlar hamda harakatlar simmetriyasini rivojlantiradi.

8.	To'p bilan sakrash	To'p orqali oyoq muvozanatini his qilishni rivojlantiradi.
9.	Yulduzcha sakrash	Qo'l va oyoq harakatlari koordinatsiyasi va harakat ritmini rivojlantiradi.
10.	Gimnastika o'rindig'ida emaklab yurish	Harakatlar ko'chish tezligini oshiradi, qo'l va yelka kamarini mustahkamlaydi

Eslatma: Nozologiyaning og'ir shakllarida jismoniy mashqlar yuklamasi tibbiy ko'rsatmalarga binoan tartibga solinadi.

Davlat o'quv dasturida bolaning o'yin o'ynash huquqi tan olinadi. O'yinning bola uchun ahamiyati, uning pedagogik imkoniyatlari ta'lif va tarbiya jarayonini tashkil etishda inobatga olinganligi uchun, biz ham o'yin faoliyatiga yetakchi harakat vositasi sifatida ahamiyat qaratdik. Imkoniyati cheklangan bolalarning nozologiyasi bo'yicha o'yinlar majmui yaratildi. Tabaqalashtirilgan harakatli o'yinlarni jismoniy tarbiya mashgulotlariga kiritish orqali ijtimoiy-hissiy, ijodiy va jismoniy rivojlanishiga, nutq va ijtimoiy ko'nikmalarni shakllanishiga erishildi, natijada harakat harakatikalarini takomillashdi (2.4-jadvalga qarang).

2.4-jadval

Harakatli o'yinlarni tabaqalashtirish

Zaif ko'ruchchi (tiflo)	Zaif eshituvchi (surdo)	Aqli zaif (oligofren)
"Mergancha yurush"	"Ishorani eshit"	"Darvozaga tushin"
"So'qmoq bo'ylab"	"Pufak"	"Labirint"
"Qo'g'irchoqlarnikiga mehmonga"	"Tayoqchadan hatlab o't"	"Buz aylanaga turamiz"
"Koptokni quvib yet"	"Shiqildoqqacha emaklab kel"	"Chumchaqchi va mushuk"
"Chiziqni bosma"	"Ehtiyyot bo'l"	"Paxmesa"
"To'p doirada"	"To'pni ilib ol"	"Ariqdan sakrab o'tish"
"Uzun ilonizi bo'ylab"	"Sichqonlar va mushuk"	"Quyosh va yeng"
"Quyosh va yomg'ir"	"Quyon yuvinayapti"	"Nishchayga tushin"

9.	"Qushlar janubga uchmoqda"	"Qushlar janubga uchmoqda"	"Qushlar janubga uchmoqda"
10.	"Bayroqchani top"	"Tovush qayerdan kelayapti?"	"Nima yashirilgan?"
11.	"Kegli"	"Yugurib keling oldimga"	"O'z juftingni top"
12.	"Turna va g'oz"	"Indagi qushni top"	"Gaplashuvchi to`p"
13.	"Koptok maktabi"	"Koptok ona boshiga"	"Ko'prikscha ustidan"
14.	"Robot"	"Tutuvchilar"	"To'p qayerga yashirilgan"
15.	"Quyonlar bilan bo`ri"	" Bayrog`iga kim tez yetib boradi"	"Birinchi bo'lib tur"

"Ohista qadam" tabaqlashtirilgan dasturiga ko'ra, jismoniy tarbiya mashg'uloti kirish, asosiy va yakuniy qismlardan iborat bo'lib, ularning har biri o'ziga xos vazifa va mazmunga ega.

"Ohista qadam" variativ dasturining amalda qo'llanilishi, bolalarda o'zlarining kuchli tomonlariga ongli munosabat va ularga ishonchni uyg'otish, jismoniy faoliyatni bajarishga tayyorlik, tizimli jismoniy mashqlarga ehtiyojini shakllantiradi.

"Ohista qadam" tabaqlashtirilgan variativ dasturi tadqiqot doirasida yaratilgan bo'lib, ushbu dastur tadqiqotning belgilangan tajriba bosqichlarida amalga oshirildi va maktabgacha ta'lif tizimida qo'llanildi (2.11- rasmga qarang).

Biz yaratgan dasturning maqsadi – imkoniyati cheklangan maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiya jarayonida harakat – ko'nikma va malakalarini shakllantirishda tabaqlashtirilgan yondashuvlarni ishlab chiqishdan iborat.


Vazifalari – sog'lomlashtirish, ta'limi, tarbiyaviy hamda imkoniyati cheklangan maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan variativ – korreksion mashqlar majmui hamda nozologiyasiga mos harakatli o'yinlarni tabaqlashtirishdan iborat.

Demak, dasturimizda biz quyidagi yo'nalishlarda bolalarni qamrab oldik: zaif ko'rvuchi, zaif eshituvchi, diqqatini to'plashga qiyunaluvchi hamda nutqiy rivojlanishida nuqsoni bor bolalar. "Ohista qadam" dasturini amalga oshirishda quyidagi vositalarni tanlab oldik – harakatli o'yinlar, mashqlar hamda sayr faoliyati. Harakatli o'yinlar, mashqlar, sayrlar bolalarning jismoniy imkoniyati, jinsi, shu bilan birga, ularning ruhiy xususiyatlarini inobatga olgan holda tanlab olingan. Biz ishlab chiqilgan dasturni maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qonun doirasida tatbiq etdik. Bunga sabab, ushbu dastur Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutining Ilmiy – metodik kengashida ko'rib chiqilib, nashrga va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'llash uchun tavsiya etgan ko'chirmasi mavjud bo'lib, shu asosda dastur amaliyatga tatbiq etildi. Dastur amaliyot muhokamasida, ya'ni bir yil davomida aprobatsiyadan o'tkazildi hamda tajriba guruqlarida qo'llanildi. Tajriba guruhi sinaluvchilarining ko'rsatgan natijalari nazorat guruhi sinaluvchilarining natijalariga qaraganda sezilarli darajada farqlar bilan namoyon bo'ldi. Variativ Dasturni amalga oshirishda bir qancha metodlar va vositalar tanlab olindi. Og'zaki suhbat jarayoni, bolalarni kuzatish hamda amaliy mashg'ulot usullaridan foydalangan holda, dastur amaliyatga tatbiq etildi. Bolalarning rivojlanish xaritasi Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchining asosiy hujjati hisoblanadi va uning ushbu dastur bilan bog'liq jihat mavjud. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagи bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga (standart) muvofiq, bola mana shu rivojlanish xaritasida belgilangan vazifalarni amalga oshira olsa, kelgusida ta'lim olishga tayyor va standartlarga to'la javob bera oladi. Shuning uchun ham dasturning muvofiqligi mana shu rivojlanish xaritalariga qarab moslashtirib chiqildi va shu asosda umumiy natijalar belgilab berildi.

§ 2.3. Pedagogik jarayonda qo'llanilgan “Ohista qadam” vositalari va uslublarining samaradorligi

Ta'lim berish uslubiyatining individual xususiyatlari bolalarning nozologiyasiga qarab keng miqyosda o'zgaradi. Mashg'ulotlarda har bir tarbiyalanuvchining funksional imkoniyatlariga asoslanish kerak. Imkoniyati cheklangan maktabgacha yoshdagi bolalarning hali o'r ganilmagan mashqlar bo'yicha ko'nikma va malakalarini hosil qilish hamda ularni o'zgartirish uchun ular organizmining funksional holatini hisobga olish zarur. Soha mutaxassislarining fikricha, jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish, mushaklar uchun optimal yuklamani tanlash, uning qanday darajada yurak va nafas organlari tizimining rivojlanishiga yordam berishi, har bir yosh organizmning bir-biridan farq qilishini bilish juda muhim. Jismoniy mashqlarning hamda uslublarning xilma-xilligi, uslubiy texnikasi, mashg'ulotlarni tashkil etish shartlari, bolaning imkoniyatlarini maksimal darajada har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan.

Jismoniy mashqlarning oqilona tanlovi umumiy va maxsus vazifalarga yechim tohish imkonini beradi. Yurish, yugurish, sakrash, uloqtirish, to'p bilan mashq qilish va boshqalar kabi mashqlarning tabiiy turlari bolalarning muvofiqlashtirish, muvozanatni saqlash qobiliyatlarini, fazoda orientatsiya, jismoniy tayyorgarlik, ikkilamchi buzilishlarning oldini olish, hissiy aqliy qobiliyatlarini tuzatish va rivojlantirish uchun ulkan imkoniyatlarga ega.



2.11-rasm. "Ohista qadam" variativ dasturining ishlash mexanizmi.

Tabaqalashtirilgan yondashuvni amalga oshirish uchun barcha guruhlardagi tarbiyalanuvchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasi aniqlanib, guruhlarda mashq bajarishdagi nozologiyasiga qarab, ularga tabaqalashtirilgan harakatli o'yinlar hamda variativ mashqlar beriladi.

Tarbiyalanuvchilarning individual natijalarini baholash maqsadida har bir bola uchun alohida rivojlantirish xaritasi tuziladi (2- ilovaga qarang).

Maktabgacha talim muassasasi Oligofren guruhi tarbiyalanuvchilari bilan o'tkazilgan tadqiqotimizga asosan, nazorat guruhimizda joyidan turib uzunlikka sakrash (sm) (tezlik-kuch) bo'yicha tadqiqot boshida ko'rsatgan natijalar - $97,84 \pm 8,38$ sm ga teng bo'lgan bo'lsa, tadqiqot oxirida esa - $106,03 \pm 8,58$ sm natijani ko'rsatdi, ya'ni $8,37\%$ ga o'sganligi aniqlandi (2.5-jadvalga qarang).

Tajriba guruhimizda tadqiqot boshida ko'rsatgan natijalar - $93,69 \pm 7,93$ bo'lgan bo'lsa, tadqiqot oxirida esa - $113,3 \pm 9,24$ sm natijani ko'rsatdi, ya'ni $20,95\%$ ga o'sganligi aniqlandi. Tajriba guruhi nazorat guruhiga nisbatan $12,58\%$ o'sishni ko'rsatdi (2.6-jadvalga qarang).

10 metrga yugurish (s) (tezlik)da nazorat guruhida tadqiqot boshida ko'rsatgan natijalar - $8,44 \pm 0,63$ ga teng bo'lgan bo'lsa, tadqiqot oxirida - $7,74 \pm 0,55$ s ga teng natijani ko'rsatdi, ya'ni $8,29\%$ ga o'sganligi aniqlandi. Tajriba guruhida tadqiqot boshida natijalar - $8,33 \pm 0,67$ s ga teng bo'lgan bo'lsa, tadqiqot oxirida - $8,83 \pm 0,65$ s ga teng natijani ko'rsatdi, ya'ni $15,29\%$ o'sganligi aniqlandi. Tajriba guruhi nazorat guruhiga nisbatan 7% o'sishni ko'rsatdi.

Maktabgacha ta'lif muassasasi nazorat guruhi

(n=42) tarbiyalanuvchilari bilan o'tkazilgan tadqiqot yuzasidan ma'lumotlar (oligofren)

O'rganilayotgan ko'rsatkichlar	Tajriba boshida			Tajriba oxirida			O'sishi %	t	p
	X	σ	V	X	σ	V			
Joyidan turib uzunlikka sakrash (sm)	97,84	8,38	8,57	106,03	8,58	8,09	8,19	8,37	1,81 >0,05
10 metrga yugurish (s)	8,44	0,63	7,46	7,74	0,55	7,11	0,70	8,29	2,21 <0,05
Joyidan turib balandlikka sakrash (sm)	23,27	2,22	9,54	25,48	2,32	9,11	2,21	9,50	1,82 >0,05
Qum haltachasini uzoqlikka otish (200 gr)	271,47	20,61	7,59	296,01	21,02	7,10	24,54	9,04	2,21 <0,05
Qum haltachasini nishonga otish (ball)	0,94	0,06	6,38	1,00	0,062	6,20	0,06	6,38	1,84 >0,05
Buyumlar orasidan "ilon izi" bo'lib yugurish (s)	8,47	0,71	8,38	9,15	0,69	7,54	0,68	8,03	1,82 >0,05
Rangli zariklarni qutiga solish	o'ng qo'l	14,53	1,41	9,70	15,94	1,47	9,22	1,41	9,70 1,83 >0,05
		14,04	0,91	6,48	15,13	0,92	6,08	1,09	7,76 2,23 <0,05
Tanani oldinga egish (sm)	1,47	0,14	9,52	1,61	0,15	9,32	0,14	9,52	1,81 >0,05

Joyidan turib balandlikka sakrash (sm) (tezlik-kuch)) da nazorat guruhi tadqiqot boshida ko'rsatgan natija – $23,27 \pm 2,22$ sm bo'lgan bo'lsa, tadqiqot oxirida – $25,4 \pm 2,32$ sm ga teng, ya'ni 9,% ga o'sganligi aniqlandi. Tajriba guruhida tadqiqot boshida ko'rsatgan natijalar – $21,79 \pm 2,5$ sm ga teng bo'lgan bo'lsa, tadqiqot oxirida esa $25,48 \pm 2,32$ sm natijani ko'rsatdi, ya'ni 16,93 % ga o'sganligi aniqlandi. Tajriba guruhi nazorat guruhiga nisbatan 7,93% o'sishni ko'rsatdi.

Qum haltachasini uzunlikka otish (200 gr) (kuch)da nazorat guruhi tadqiqot boshida ko'rsatgan natija – $271,4 \pm 20,61$ sm ga teng bo'lgan bo'lsa, tadqiqot oxirida – $296,01 \pm 21,02$ sm ga teng natijani ko'rsatdi, ya'ni 9,04 %ga o'sganligi aniqlandi. Tajriba guruhida esa tadqiqot boshida ko'rsatgan natija – $265,84 \pm 16,96$ sm ga teng bo'lgan bo'lsa, tadqiqot oxirida – $307,87 \pm 18,82$ sm natijani ko'rsatdi, ya'ni 15,81%ga o'sganligi aniqlandi. Tadqiqot guruhida nazorat guruhiga nisbatan 6,77% o'sish kuzatildi.

Qum haltachasini nishonga otish (ball) (koordinatsiya)da nazorat guruhi tadqiqot boshida ko'rsatgan natijalar – $0,94 \pm 0,06$ ballga teng bo'lsa, tadqiqot oxirida esa – $1,01 \pm 0,062$ ball natijani ko'rsatdi, ya'ni 6,38 %ga o'sganligi aniqlandi. Tajriba guruhida tadqiqot boshida ko'rsatgan natijalar – $1,02 \pm 0,07$ ballga teng bo'lgan bo'lsa, tadqiqot oxirida – $1,18 \pm 0,84$ ballga teng natijani ko'rsatdi, ya'ni 15,69 % ga o'sganligi aniqlandi. Tadqiqot guruhida nazorat guruhiga nisbatan 9,31% ga o'sish kuzatildi.

Buyumlar orasidan "ilon izi bo'ylab yugurish" (s)da nazorat guruhi tadqiqot boshida ko'rsatgan natijalar $8,47 \pm 0,71$ s ga teng bo'lgan bo'lsa, tadqiqot oxirida – $9,15 \pm 0,69$ s ga teng natijani ko'rsatdi, ya'ni 8,03 % ga o'sganligi aniqlandi. Tajriba guruhida tadqiqot boshida ko'rsatgan natijalar $8,05 \pm 0,52$ s ga teng bo'lgan bo'lsa, tadqiqot oxirida esa – $9,14 \pm 0,55$ s ga teng natijani ko'rsatdi, ya'ni 13,54 % ga o'sganligi aniqlandi. Tajriba guruhida nazorat guruhiga nisbatan 5,51%ga o'sish kuzatildi.

2.6-jadval


Maktabgacha ta'lim muassasasi tajriba guruhi (n=42) tarbiyalanuvchilari bilan o'tkazilgan tadqiqot yuzasidan ma'lumotlar (oligofren)

O'rganilayotgan ko'rsatkichlar	Tajriba boshida			Tajriba oxirida			O'sishi %			t	P
	X	σ	V	X	σ	V	Absolyut	Nisbiy,			
Joyidan turib uzunlikka sakrash (sm) tezkor-kuch	93,69	7,93	8,46	113,32	9,24	8,15	19,63	20,95	4,27	<0,01	
10 metrga yugurish (s) tezlik	8,83	0,65	7,36	7,48	0,53	7,09	1,35	15,29	4,26	<0,01	
Joyidan turib balandlikka sakrash (sm) tezkor-kuch	21,79	2,05	9,41	25,48	2,32	9,11	3,69	16,93	3,15	<0,01	
Qum haltachasini uzoqlikka otish (200 gr) kuch	265,84	16,96	6,38	307,87	18,82	6,11	42,03	15,81	4,39	<0,001	
Qum haltachasini nishonga otish (ball)	1,02	0,076	7,45	1,18	0,084	7,12	0,16	15,69	3,74	<0,01	
Buyumilar orasidan "lion izi" bo'yab yugurish (s)	8,05	0,52	6,46	9,14	0,55	6,02	1,09	13,54	3,81	<0,001	
Pengji zarikarni qur'ga sallish	13,87	1,32	9,52	15,47	1,38	8,92	1,60	11,54	2,22	<0,05	
Tarzai o'sishi qiziqish (zm) eg'durchanlik	1,56	0,15	9,62	1,84	0,17	9,24	0,28	17,95	3,27	<0,01	

Rangli zariklarni qutiga solish (sensomotorika) ($o'ng$ qo'lda) da nazorat guruhi tadqiqot boshida ko'rsatgan natijalar – $14,53 \pm 1,41$ donaga teng bo'lgan bo'lsa, tadqiqot oxirida $15,94 \pm 1,47$ dona natijani ko'rsatdi, ya'ni 9,70 %ga o'sganligi aniqlandi. Tajriba guruhida tadqiqot boshida ko'rsatgan natijalar $13,87 \pm 1,32$ donaga teng bo'lgan bo'lsa, tadqiqot oxirida $15,47 \pm 1,38$ donaga teng natijani ko'rsatdi, ya'ni 11,54 %ga o'sganligi aniqlandi. Tajriba guruhi nazorat guruhiga nisbatan 1,84%ga o'sishni namoyon qildi.

Rangli zariklarni qutiga solish (sensomotorika) (chap qo'lda) da nazorat guruhi tadqiqot boshida ko'rsatgan natijalar – $14,04 \pm 0,91$ donaga teng bo'lgan bo'lsa, tadqiqot oxirida $-15,13 \pm 0,92$ donaga teng natijani ko'rsatdi, ya'ni 7,76 %ga o'sganligi aniqlandi. Tajriba guruhida tadqiqot boshida ko'rsatgan natijalar – $13,38 \pm 0,89$ ga teng bo'lgan bo'lsa, tadqiqot oxirida $-16,03 \pm 0,98$ ga teng natijani ko'rsatdi, ya'ni 19,81%ga o'sganligi aniqlandi. Tajriba guruhi nazorat guruhiga nisbatan 12,05 % ga o'sishni ko'rsatdi.

Tanani oldinga egish (sm) (egiluvchanlik) da nazorat guruhi tadqiqot boshida ko'rsatgan natijalar $1,47 \pm 0,14$ sm ga teng bo'lgan bo'lsa, tadqiqot oxirida $1,61 \pm 0,15$ sm ga teng natijani ko'rsatdi, ya'ni 9,52 %ga o'sganligi aniqlandi. Tajriba guruhida tadqiqot boshida ko'rsatgan natijalar $1,56 \pm 0,15$ sm ga teng bo'lgan bo'lsa, tadqiqot oxirida – $1,84 \pm 0,17$ sm natijani ko'rsatdi, ya'ni 17,95 %ga o'sganligi aniqlandi. Tajriba guruhi ko'rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan 8,43% ga o'sdi.



2.12-rasm. Oligofren guruhlari natijalarining qiyosiy tahlili. Tajriba guruhining ko'rsatkichlar nisbdiy o'sishlarining o'rtacha arifmetik qiymati (%)

Jismoniy mashqlarni bajarishda ko'proq skelet mushaklari ishtirok etib, ushbu mashqlar nafaqat organizmning ishlash imkoniyatlarini oshirib qolmasdan, balki ikkilamchi kasalliklarni ham oldini olishga yordam beradi. Shu qatorda nozologik xususiyat katta ahamiyatga ega bo'lub, bolalarning pasport yoshi biologik rivojlanish darajasiga to'g'ri kelmasligi mumkin. Shuning uchun jismoniy tarbiya mashg'ulotlari jarayonini oqilona tashkil qilishda tarbiyalanuvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olmay, yuklamani tartibga solish mumkin emas.

Bolalarning nozologiyasiga qarab ta'lim berish uslubiyatinining individual xususiyatlari keng miqyosda o'sqaradi. Mashg'ulotlarda har bir tarbiyalanuvchining funksional imkoniyatlariga asoslanish kerak. Tarbiyalanuvchilarga hali

o'rganilmagan mashqlar bo'yicha ko'nikma va malakalar hosil qilish hamda ularni o'zgartirish uchun organizmning funksional holatini hisobga olish zarur. Soha mutaxassislarning fikricha, jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish, mushaklar uchun optimal yuklamani tanlash, uning qanday darajada yurak va nafas organlari tizimining rivojlanishiga yordam berishi, har bir patologiyaning bir-biridan farq qilishini bilish juda muhim.

Ilmiy-uslubiy adabiyotlar va MTTlar uchun mo'ljallangan jismoniy tarbiya bo'yicha o'quv dasturlar va boshqa me'yoriy hujjatlarning tahlili shuni aniqlash imkonini beradiki, davlat ko'p tarmoqli mактабгача та'lim tashkilotlarida faoliyat olib borayotgan jismoniy tarbiya o'qituvchilari uchun variativ dastur mavjud emas, jismoniy va boshqa sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar majmuasidan foydalanish uchun qo'llamma yaratilmagan. Shu sababli tarbiyalanuvchilarda, jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga bo'lgan motivatsiya past bo'lib, me'yorlarni bajarishga tayyorlashda jismoniy rivojlanishning individual xususiyatlarini inobatga olish quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

1. Sinovlar tarkibi va jismoniy mashqlar majmuasini bajarishga tayyorlash uchun ularni individuallashtirish.
2. Nozologiya xususiyatlari, ayrim mushaklarning rivojlanish darjasи, umumiy jismoniy tayyorgarlikni hisobga olish.
3. Umumiylar harakat faolligini (sog'ligi to'g'risidagi ma'lumatni) inobatga olish.
4. Har tomonlama jismoniy rivljanishni ta'minlash maqsadida turli-tuman (kuch, tezlik sifatlarini rivojlantirish, mushaklarni cho'zish uchun) mashqlarni tanlash.
5. Jismoniy sifatlarning rivojlanishini monitoring qilgan holda yuklamalarni asta-sekin oshirib borish.

Tarbiyalanuvchilarning nazorat sinovlarini topshirishga tayyorlash jarayoni aniq tashkiliy va tuzilmaviy xususiyatga ega bo'lishi kerak, ya'ni:

- "Jismoniy tarbiya" fani ta'lif dasturida o'z o'rniiga ega bo'lishi zarur;

- nazorat sinovlarini topshirishga tayyorlash doirasida tashkil qilinadigan va o'tkaziladigan mashg'ulotlar individuallik tamoyili asosida qurilishi va bunda guruh va alohida har bir tarbiyalanuvchining xususiyatlarini inobatga olish zarur.

Bugungi kunda farzandlarimizning har tomonlama kuchli va baquvvat bo'lib voyaga yetishlari uchun davlatimiz tomonidan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Bularning isboti sifatida, nafaqat sportchilarda, balki maktab tarbiyalanuvchilari orasida ham tabaqalashtirilgan jismoniy tayyorgarlikning amalda qo'llanib kelinayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Tarbiyalanuvchilarning jismoniy tarbiya darslari jarayonidagi jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligi darajasi o'ziga xos bo'lib, farqli ravishda individual o'zgarishlarga ega. Bir xil yoshdagi va bir xil jismoniy rivojlanishga ega bo'lgan tarbiyalanuvchilarda jismoniy sifatlarning rivojlanishi har xil ekanligi ta'kidlangan. Shu sababli, jismoniy rivojlanishi har xil bo'lgan o'g'il va qizlarda jismoniy sifatlarni tarbiyalash uchun individual dasturlar tuzish, mashqlar majmuasini ishlab chiqish, dars jarayonida har bir guruh uchun alohida yondashgan holda o'rgatishni tashkil qilish – jismoniy tarbiya jarayonida dolzarb masalalardan biridir.

Jismoniy tarbiya o'qituvchilarining mashg'ulotda va sinfdan tashqari olib boradigan ishlarida tarbiyalanuvchilarga tabaqalashtirilgan yondashuv tajribasini o'rganish shuni ko'rsatadiki, bir tomondan, bunday tabaqalashtirilgan

yondashuvlar ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lif tashkilotlari sharoitida joriy etilmagan bo'lsa, ikkinchi tomondan, buning amalga oshirilmaganligiga ancha murakkab sabablari mavjud. Birinchi sabab sifatida DKTIMTTlarda jismoniy tarbiyasi bo'yicha dastur va qo'llanmalarning mavjud emasligi bo'lsa, ikkinchi tomondan esa, soha bo'yicha kadrlarning yetishmasligi masalasi deb qarash mumkin.

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarga qo'yiladigan davlat talablarni bajarish, tarbiyalanuvchilarining jismoniy tayyorgarligi darajasini aniqlash – jismoniy tarbiya o'qituvchilarining asosiy vazifalaridan biridir. Ba'zi bir mashqlarning bajarilishi bolalarning qaddi-qomati va jismoniy tayyorgarligiga bog'liqdir. Shu sababdan, mashqlarni tanlayotganda, bola organizmining tashqi tuzilishi va ichki organlari rivojlanishini bilgan holdagina, ular uchun aniq jismoniy mashqlar hamda topshiriqlar yuklamasini me'yorlash mumkin. Ba'zi bir bolalarning boshqalariga nisbatan patologiyasi yengilroq bo'lib, ularning jismoniy tarbiya dasturidagi mashqlarni bajarishi boshqalarnikidan farq qiladi. Chunki ularning qancha ko'p individual shug'ullanishlari natijasida jismoniy tayyorgarlik farqi yaqqol namoyon bo'ladi. Agar tarbiyalanuvchilarining mashqlar bajarish ko'nikma va malakalari to'g'ri shakllantirib borilsa, ularning jismoniy tayyorgarligi darjasи o'sadi. Mashg'ulotlar davomida bo'yi past bolalar murakkab turdagи mashq harakatlarini yaxshi bajaradi, bo'yi uzun bolalarning tezkorlik va egiluvchanlik harakatlarini yaxshi bajarishi ko'zga tashlanadi. Biroq ushbu mashqlarni deyarli barchasini bajarish jarayonini nafaqat o'qituvchi, balki u bilan birga DKTIMTT hamshirasi ham kuzatib borishga mas'uldir. Tarbiyalanuvchilarini jismoniy tayyorlashning eng yaxshi yo'naliishlaridan biri – jismoniy tarbiya darsida tabaqalashtirilgan yondashuvni qo'llashdir. Bu jismoniy

tarbiya darslarining asosiy shartlaridan biri ekanligi olimlar tomonidan qayd etilgan. Tabaqalashtirilgan yondashuvni amalga oshirish uchun barcha guruhlardagi tarbiyalanuvchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasi aniqlanib, guruhlarda mashq bajarishdagi nozologiyasiga qarab, ularga tabaqalashtirilgan harakatli o'yinlar hamda variativ mashqlar beriladi. Tarbiyalanuvchilarning individual natijalarini baholash maqsadida har bir test uchun maxsus jadval tuziladi.

Ilmiy tekshirish va amaliy tajriba ishlarining natijalarini shuni ko'rsatadiki, har bir nozologiyada kuchli, o'rta va kuchsiz tarbiyalanuvchilar mavjud va shu sababli guruh tarbiyalanuvchilari orasida jismoniy tarbiya materiallarini o'zlashtirishda sezilarli farq bo'lishi aniq.

Ta'lim muassasalarida o'quv jarayoni samaradorligini oshirishning eng qulay yo'llarini izlab topish hamma vaqt muammo bo'lib kelgan. Bu masalani to'g'ri hal qilishning asosiy yo'llaridan biri sifatida kompleks yondashuvni amalga oshirish kerakligi ko'rsatib o'tilgan. Bolalarning DKTIMTTda o'qish davrida tashqi tuzilishida sezilarli ravishda morfo-funksional va psixofiziologik o'zgarishlar yuz berishi aniqlangan.

Tarbiyalanuvchilarning jismoniy faolligi va shaxsiy psixologik xususiyati o'rtasidagi ahamiyatsiz bog'liqlik pedagog uchun quyidagilarga e'tibor berishni talab qiladi: psixologik-pedagogik tadbirlarga diqqatni ko'proq jalb etish, sport mashg'ulotlarida qatnashishni rag'batlantirish, mustahkam sog'liqni qo'llab-quvvatlashga intilish, mashg'ulotlarning samaradorligini, birinchi navbatda, adekvat uslublar ta'sirida ko'tarish, shuningdek, bir necha ijtimoiy hamda biologik omillarga e'tibor berish. O'rgatishda harakat tuzilmasi tarbiyalanuvchining jismoniy imkoniyatlariiga mos kelishi juda muhimdir. Tarbiyalanuvchi harakatni to'g'ri bajara olishi uchun

unda kuch, tezkorlik va boshqa sifatlarning rivojlanganligi yetarli bo'lmasa, tegishli darajada jismoniy tayyorgarlikka erishmagunga qadar o'rgatishni to'xtatib turish kerak. Harakatlardagi noaniqlikni va ijro borasidagi xatolarni quyidagi izchillikda: qo'pol va muhim xatolar, qiyin, mayda va uncha ahamiyatli bo'limganlarini bartaraf etish kerak.

Psixoharakat rivojlanmaganlik, jismoniy va aqliy zaiflikning o'ziga xos xususiyatlari, darslikni idrok etishdagi qiyinchiliklarni hisobga olgan holda, usullarni tanlashda quyidagi didaktik qodalarga amal qilish kerak:

- 1) asta-sekin murakkablashishi bilan oddiy harakatlarning maksimal zaxirasini yaratish;
- 2) jismoniy mashqlarni bajarishda og'zaki tartibga solish va vizual-majoziy fikrlashni rag'batlantirish;
- 3) kognitiv faoliyatni maksimal darajada faollashtirish;
- 4) buzilmagan funksiyalarga, rivojlanishning sezgir davrlariga va bolaning salohiyatiga e'tibor berish;
- 5) har xil usullar bilan o'yinga ustunlik berish (bo'shashgan, hissiy muhitda bolalar o'quv materialini yaxshiroq o'zlashtiradilar);
- 6) nomga ega bo'lgan mashqlar o'ynoqi shaklga ega bo'lib, ularni esda saqlashni rag'batlantiradi va takrorlash bilan assosiativ xotirani rivojlanadiradi.

Rivojlanish jarayonida organizmda ham miqdor, ham sifat o'zgarishlari ro'y beradi. Bunday o'zgarishlar tufayli organizm o'sgan sari takomillashib boradi. Rivojlanish jarayoni o'z ichiga uchta asosiy omilni oladi, bular - o'sish, a'zo va to'qimalarning tabaqalanishi hamda to'qima, a'zo, organizm shakllarining hosil bo'lishi. Bu omillar bir-biriga uzviy bog'langan bo'lib, ular bir-biridan ajralgan holda shakllana olmaydi. Rivojlanishning asosiy fiziologik xususiyatlaridan biri - o'sish jarayonidir. O'sish,

asosan, yosh organizmga xos xususiyat bo'lib, unda hujayralar son va sifat jihatdan o'zgarib boradi. Ba'zi a'zolarda hujayralar soni ko'paysa (masalan, suyak, o'pka to'qimalari), ba'zilarida esa hujayralar soni o'zgarmasdan, ularning hajmi kattalashib boradi (masalan, mushak, asab to'qimalarida).

Jismoniy rivojlanish o'sib kelayotgan organizm sog'lig'inинг muhim ko'rsatkichi hisoblanadi va u ikki ma'noni beradi: birinchisi, organizmning yetilish, shakllanish jarayonlarini va bu ko'rsatkichlarning biologik yoshga mosligini anglatsa, ikkinchisi, har qancha vaqt oralig'ida morfo-funksional holatni tavsiflaydi.

Tajriba va nazorat guruhlari tarbiyalanuvchilarining jismoniy rivojlanishi bo'yicha tadqiqot boshida va oxirida ko'rsatkichlari jadvallarda aks etgan.

III BOB. JISMONIY TARBIYA METODIKASINI QO'LLASH SAMARADORLIGINI ANIQLASH BO'YICHA PEDAGOGIK TAJRIBA NATIJALARI VA ULARNING TAHLILI

§3.1. Imkoniyati cheklangan maktabgacha yoshdagi bolalarning funksional imkoniyatlarini baholashning yakuniy natijalari

To'rtinchi bobda pedagogik tajriba davomida tadqiq qilingan nazorat va tajriba guruhlari tarbiyalanuvchilarining jismoniy tayyorgarligi ko'rsatkichlari tahlili keltirilgan.

Pedagogik tajriba Chirchiq shahrining 30-sон Davlat ixtisoslashtirilgan ko'п tarmoqli maktabgacha ta'lim tashkiloti, Qibray tumani 34-sон Davlat ixtisoslashtirilgan ko'п tarmoqli maktabgacha ta'lim tashkiloti, Mirzo Ulug'bek tumani 390-sон Davlat ixtisoslashtirilgan ko'п tarmoqli maktabgacha ta'lim tashkilotida o'tkazildi. Umumiylishtirokchilar 240 nafar, shulardan 120 nafari tajriba, 120 nafari nazorat guruhlarida ishtirok etishdi (3.1 va 3.2 jadvalarga qarang).

Imkoniyati cheklangan maktabgacha yoshdagi tajriba guruhi bolalarining barcha ko'rsatkichlar bo'yicha ko'rsatgan natijalari o'rtacha arifmetik qiymatlari pedagogik tajriba davomida statistik ishonchli: ularni statistik ishonchliligi eng past ko'rsatkich ($P<0,01$ va $t=3,40$) sinaluvchilarining vaznida va qolgan ko'rsatkichlarda juda ishonchli (t qiymatlari 4,25 va 4,28 oralig'ida tebranib; $P<0,001$) o'zgarishlar kuzatilgan.

3.1-jadval

Tajriba guruhi (n=120) tarbiyalanuvchilarining jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlarini tajriba davomida o'zgarish dinamikasi


№	Ko'rsatkichlar	Tajriba boshi		Tajriba oxiri		O'sish % ut	t	P
		\bar{X}	σ	\bar{X}	σ			
1.	Tana vazni (kg)	21,68	2,59	24,27	2,7	2,59	11,95	4,27 <0,001
2.	Bo'y uzunligi (sm)	115,05	11,46	126,29	11,56	11,24	9,77	4,26 <0,001
3.	KQA (ko'krak qafasi aylanasi) (sm)	49,54	5,44	53,79	5,46	4,25	8,58	3,40 <0,01
4.	O'TS/o'pkaning tiriklik sig'imi / (ml)	550,27	71,37	621,82	75,24	71,55	13,00	4,25 <0,001
5.	YUQS tinch har-da	97,36	10,67	89,64	9,08	7,72	7,93	3,40 <0,01
6.	O'ng qo'l panja kuchi	129,78	12,92	118,11	10,81	11,67	8,99	4,27 <0,001
7.	Chap qo'l panja kuchi	6,34	0,82	7,17	0,87	0,83	13,09	4,28 <0,001
		5,18	0,62	5,8	0,65	0,62	11,97	4,25 <0,001

3.2-jadval

**Nazorat guruhi (n=120) tarbiyalanuvchilarining
jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlarini tajriba davomida
o'zgarish dinamikasi**

Ko'rsat-kichlar	Tajriba boshi		Tajriba oxiri		O'sish %		t	P
	\bar{X}	σ	\bar{X}	σ	absolyut	nisbiy		
1.	20,68	2,39	21,81	2,42	5,25	4,51	2,06	<0,05
2.	116,29	11,09	121,54	11,08	2,08	4,24	1,75	>0,05
3.	49,09	5,21	51,17	5,18	33,75	5,93	2,04	<0,05
4.	568,94	71,38	602,69	72,97	3,96	4,01	1,72	>0,05
5.	98,74	10,41	94,78	9,63	5,55	4,30	2,05	<0,05
5.	128,97	12,32	123,42	11,26	0,37	5,93	2,03	<0,05
6.	6,24	0,79	6,61	0,8	0,29	5,43	2,04	<0,05
7.	5,34	0,62	5,63	0,62	0,26	4,88	2,06	<0,05

Imkoniyati cheklangan maktabgacha yoshdag'i nazorat guruhidagi bolalarda esa, yuqorida keltirilgan jadval bo'yicha 5 ta ko'rsatkichda natijalari o'rtacha arifmetik qiymatlari pedagogik tajriba davomida statistik ishonchli ($P<0,05$ va $t=2,03$ dan $t=2,06$ gacha tebranadi), sinaluvchilarining bo'y uzunligi va o'pkaning tiriklik sig'imi ko'rsatkichlarida ishonchsiz (t qiymatlari 1,72 va 1,75 oralig'ida tebranib; $P>0,05$) o'zgarishlar kuzatilgan (3.1-rasmga qarang).



4.1-rasm. Tajriba va nazorat guruhlarining morfofunk-sional ko'rsatkichlarining qiyosiy tahlili (%)

Jadvaldagi ko'rsatkichlardan aniq bo'ldiki, 5-6 yoshli imkoniyati cheklangan mакtabgacha yoshdagi bolalarning tajriba guruhlariдagi mashqlari natijalarining pedagogik tajriba davomida o'sishi, nazorat guruhlariга nisbatan ancha yuqori bo'lган. Jumladan, 5-6 yoshli nazorat guruhida o'рганилган nisbiy o'sishning o'rtacha arifmetik qiymati 4,98 % ni tashkil etgan bo'lib, tajriba guruhi sinaluvchilari funksional ko'rsatkichlarini pedagogik tajriba davomida ham aynan shu ko'rsatkichlar 10,66% o'sish ko'rsatdi. Styudent taqsimoti kritik nuqtalari qiymatlari uchun ham tajriba guruhida nazorat guruhiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlar aniqlangan.

§ 3.2. Imkoniyati cheklangan mакtabgacha yoshdagi bolalarning asosiy harakatlari tayyorlarligining yakuniy natijalari tahlili.

Imkoniyati cheklangan mакtabgacha yoshdagi (katta va mакtabga tayyorlov guruhlari) bolalarning surdo nazorat va tajriba guruhlari bolalarining harakat faolligi bo'yicha ko'rsatgan natijalarining pedagogik tajriba davomida o'sish dinamikasi hamda tajriba davomida sodir bo'lган o'zgarishlar va belgilangan erkinlik darajasi, tajriba natijalari asosida hisoblangan Styudent taqsimoti kritik nuqtalari qiymatlarini jadval qiymatlari bilan solishtirib aniqlangan statistik ishonchlilik ifodalangan.

Davlat ko'п tarmoqli ixtisoslashtirilgan mакtabgacha ta'lim tashkiloti Oligofren guruhi tarbiyalanuvchilari bilan o'tkazilgan tadqiqotimizga asosan nazorat guruhida joyidan turib uzunlikka sakrash (sm) (tezkor-kuch) bo'yicha tadqiqot boshida ko'rsatgan natijalar $-97,84 \pm 8,38$ sm ga teng bo'lган bo'lsa, tadqiqot oxirida

- $106,03 \pm 8,58$ sm natijani ko'rsatdi, ya'ni $8,37\%$ ga o'sganligi aniqlandi ($P>0,05$). Tajriba guruhida tadqiqot boshida ko'rsatgan natijalar - $93,69 \pm 7,93$ sm bo'lgan bo'lsa, tadqiqot oxirida - $113,3 \pm 9,24$ sm natijani ko'rsatdi, ya'ni $20,95\%$ ga o'sganligi aniqlandi. Tajriba guruhida nazorat guruhiga nisbatan $12,58\%$ osish kuzatildi ($P<0,01$) (3.3-jadvalga qarang).

10 metrga yugurish (s) (tezlik)da nazorat guruhida tadqiqot boshida ko'rsatgan natijalar - $8,44 \pm 0,63$ s ga teng bo'lgan bo'lsa, tadqiqot oxirida - $7,74 \pm 0,55$ s ga teng natijani ko'rsatdi, ya'ni $8,29\%$ ga o'sganligi aniqlandi ($P<0,05$). Tajriba guruhida tadqiqot boshida natijalar - $8,33 \pm 0,67$ s ga teng bo'lgan bo'lsa, tadqiqot oxirida - $7,48 \pm 0,53$ s ga teng natijani ko'rsatdi, ya'ni ko'rsatkich 15,29 % ga o'sganligi aniqlandi. Tajriba guruhidi nazorat guruhiga nisbatan 7% o'sishni ko'rsatdi ($P<0,01$) (3.4-jadvalga qarang).

Joyidan turib balandlikka sakrash (sm) (tez-kuch) da nazorat guruhi tadqiqot boshida ko'rsatgan natija $23,27 \pm 2,22$ sm bo'lgan bo'lsa, tadqiqot oxirida $25,48 \pm 2,32$ sm ga teng natijani ko'rsatdi, ya'ni $9,5\%$ ga o'sganligi aniqlandi ($P>0,05$). Tajriba guruhida tadqiqot boshida ko'rsatgan natijalar - $21,79 \pm 2,05$ sm ga teng bo'lgan bo'lsa, tadqiqot oxirida - $25,48 \pm 2,32$ sm natijani ko'rsatib, $16,93\%$ ga o'sganligi aniqlandi ($P<0,01$). Tajriba guruhida nazorat guruhiga nisbattan ko'rsatkich $7,93\%$ ga o'sdi.

Qum hالتاچاسини узоқликка отиш (200 gr) (kuch)da nazorat guruhi tadqiqot boshida ko'rsatgan natijalar - $271,4 \pm 20,61$ sm ga teng bo'lgan bo'lsa, tadqiqot oxirida - $296,01 \pm 21,02$ sm ga teng natijani ko'rsatdi, ya'ni $9,04\%$ ga o'sganligi aniqlandi ($P<0,05$).

3.3-jadval

Oligofren nazorat guruhi sinaluvchilarining tadqiqot boshida va oxirida olingan jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarining tahlili (n=42)

O'rganilayotgan ko'rsatkichlar	Tajriba boshida		Tajriba oxirida		O'sishi %		t	P	
	\bar{x}	Σ	\bar{x}	σ	Absolyut	Nisbiy			
Joyidan turib uzunlikka sakrash (sm)	97,84	8,38	106,03	8,58	8,19	8,37	1,81	>0,05	
10 metrga yugurish (s)	8,44	0,63	7,74	0,55	0,70	8,29	2,21	<0,05	
Joyidan turib balandlikka sakrash (sm)	23,27	2,22	25,48	2,32	2,21	9,50	1,82	>0,05	
Qum hالتاچасини узоқликка отиш (200 gr) (sm)	271,47	20,61	296,01	21,02	24,54	9,04	2,21	<0,05	
Qum hالتاچасини нишонга отиш (ball)	0,94	0,06	1,00	0,062	0,06	6,38	1,84	>0,05	
Buyumlar orasidan "ilon izi" bo'ylab yugurish (s)	8,47	0,71	7,79	0,69	0,68	8,03	1,82	>0,05	
Rangli zariklarni qutiga solish (dona)	o'ng qo'l	14,53	1,41	15,94	1,47	1,41	9,70	1,83	>0,05
	chap qo'l	14,04	0,91	15,13	0,92	1,09	7,76	2,23	<0,05
Tanani oldinga egish (sm)		1,47	0,14	1,61	0,15	0,14	9,52	1,81	>0,05

3.4-jadval

Oligofren tajriba guruhni sinaluvchilarining tadqiqot boshida va oxirida olingan jismoni yaytorgarlik ko'rsatkichlarining tahlili (n=42)


O'rjanilayotgan ko'rsatkichlar	Tajriba boshida		Tajriba oxirida		O'sishi %	t	P
	\bar{X}	σ	\bar{X}	σ			
Joyidan turib uzunlikka sakrash (sm)	93,69	7,93	113,32	9,24	19,63	20,95	4,27 <0,01
10 metrga yugurish (s)	8,83	0,65	7,48	0,53	1,35	15,29	4,26 <0,01
Joyidan turib balandlikka sakrash (sm)	21,79	2,05	25,48	2,32	3,69	16,93	3,15 <0,01
Qum haluchasini uzoqlikka otish (200 gr)	265,84	16,96	307,87	18,82	42,03	15,81	4,39 <0,001
Qum haluchasini nishonga otish (ball)	1,02	0,076	1,18	0,084	0,16	15,69	3,74 <0,01
Buyumlar orasidan "iljon izi" bo'ylab yugurish (s)	8,05	0,52	6,96	0,55	1,09	13,54	3,81 <0,001
Rangli zariklarni qutiga solish							
o'ng qo'l	13,87	1,32	15,47	1,38	1,60	11,54	2,22 <0,05
chap qo'l	13,38	0,89	16,03	0,98	2,65	19,81	5,30 <0,001
Tanani oldinga egish (sm)	1,56	0,15	1,84	0,17	0,28	17,95	3,27 <0,01

Tajriba guruhida esa tadqiqot boshida ko'rsatgan natijalar $265,84 \pm 16,96$ sm ga teng bo'lgan bo'lsa, tadqiqot oxirida $307,87 \pm 18,82$ sm natijani ko'rsatdi, ya'ni 15,81% ga o'sganligi aniqlandi ($P < 0,001$). Tajriba guruhi nazorat guruhiga nisbatan 6,77% o'sishni ko'rsatdi.

Qum haltachasini nishonga otish (ball) (koordinatsiya)da nazorat guruhi tadqiqot boshida ko'rsatgan natijalar – $0,94 \pm 0,06$ ballga teng bo'lsa, tadqiqot oxirida $-1,01 \pm 0,062$ ball natijani ko'rsatdi, ya'ni 6,38 %ga o'sganligi aniqlandi ($P > 0,05$). Tajriba guruhida tadqiqot boshida ko'rsatgan natijalar – $1,02 \pm 0,07$ ballga teng bo'lgan bo'lsa, tadqiqot oxirida esa, $1,18 \pm 0,84$ ballga teng natijani ko'rsatdi, ya'ni 15,69 %ga o'sganligi aniqlandi ($P < 0,01$). Tajriba guruhi ko'rsatkichi nazorat guruhiga nisbatan 9,31%ga o'sdi.

Buyumlar orasidan "ilon izi bo'y lab yugurish" (s)da nazorat guruhi tadqiqot boshida ko'rsatgan natijalar – $8,47 \pm 0,71$ s ga teng bo'lgan bo'lsa, tadqiqot oxirida $-7,79 \pm 0,69$ s ga teng natijani ko'rsatdi, ya'ni 8,03 %ga o'sganligi aniqlandi ($P > 0,05$). Tajriba guruhida tadqiqot boshida ko'rsatgan natijalar $8,05 \pm 0,52$ s ga teng bo'lgan bo'lsa, tadqiqot oxirida $-6,96 \pm 0,55$ s ga teng natijani ko'rsatdi, ya'ni 13,54 %ga o'sganligi aniqlandi ($P < 0,001$). Tajriba guruhida nazorat guruhiga nisbatan 5,51%ga o'sish kuzatildi.

Rangli zariklarni qutiga solish (sensomotorika) (o'ng qo'lda) da nazorat guruhi tadqiqot boshida ko'rsatgan natijalar – $14,53 \pm 1,41$ donaga teng bo'lgan bo'lsa, tadqiqot oxirida $-15,94 \pm 1,47$ dona natijani ko'rsatdi, ya'ni 9,70 %ga o'sganligi aniqlandi ($P > 0,05$). Tajriba guruhida tadqiqot boshida ko'rsatgan natijalar – $-13,87 \pm 1,32$ donaga teng bo'lgan bo'lsa, tadqiqot oxirida $-15,47 \pm 1,38$ donaga teng natijani ko'rsatdi, ya'ni 11,54%ga o'sganligi aniqlandi ($P < 0,05$). Tajriba guruhi ko'rsatkichi nazorat guruhiga nisbatan 1,84 % ga o'sdi.




3.2-rasm. Oligofren nazorat guruhi (n=42) tarbiyalanuvchilari bilan o'tkazilgan tadqiqot davomida o'rganilayotgan ko'rsatkichlarning nisbiy o'sishlari (%).

Rangli zariklarni qutiga solish (sensomotorika) (chap qo'lida)da nazorat guruhi tadqiqot boshida ko'rsatgan natijalar - $14,04 \pm 0,91$ donaga teng bo'lgan bo'lsa, tadqiqot oxirida - $15,13 \pm 0,92$ donaga teng natijani ko'rsatdi, ya'ni 7,76%ga o'sganligi aniqlandi ($P < 0,05$). Tajriba guruhida tadqiqot boshida ko'rsatgan natijalar - $13,38 \pm 0,89$ donaga teng bo'lgan bo'lsa, tadqiqot oxirida - $16,03 \pm 0,98$ donaga teng natijani ko'rsatdi, ya'ni 19,81%ga o'sganligi aniqlandi ($P < 0,001$). Tajriba guruhiga nisbatan 12,05%ga o'sishni ko'rsatdi.

Tanani oldinga egish (sm) (egiluvchanlik) da nazorat guruhi tadqiqot boshida ko'rsatgan natijalar - $1,47 \pm 0,14$ sm ga teng bo'lgan bo'lsa, tadqiqot oxirida $1,61 \pm 0,15$ sm ga teng natijani ko'rsatdi, ya'ni 9,52 %ga o'sganligi aniqlandi ($P > 0,05$). Tajriba

guruhida tadqiqot boshida ko'rsatgan natijalar – $1,56 \pm 0,15$ sm ga teng bo'lgan bo'lsa, tadqiqot oxirida $1,84 \pm 0,17$ sm natijani ko'rsatdi, ya'ni 17,95 %ga o'sganligi aniqlandi ($P < 0,01$). Tajriba guruhi ko'rsatkichi nazorat guruhiga nisbatan 8,43% o'sdi.



3.3-rasm. Maktabgacha ta'lrim muassasasi nazorat va tajriba guruhlari tarbiyalanuvchilari bilan o'tkazilgan tadqiqot davomida o'rganilayotgan ko'rsatkichlarnin nisbiy o'sishlarini solishtirish (%).

Maktabgacha talim muassasasi "Tiflo" guruhi tarbiyalanuvchilari bilan o'tkazilgan tadqiqotimizga asosan NG va TG joyidan turib uzunlikka sakrash (sm) tezkor-kuch sifatini aniqlash bo'yicha ish olib borildi. NGda tadqiqot boshida ko'rsatilgan natijalar o'rtacha $99,16 \pm 8,88$ sm ga teng bo'lgan bo'lsa, tadqiqot oxirida esa $106,26 \pm 8,92$ sm natija ko'rsatildi, ya'ni 7,16%ga o'sganligi aniqlandi ($P > 0,05$). TGda tadqiqot boshida ko'rsatilgan natijalar $94,74 \pm 9,45$ sm bo'lgan bo'lsa, tadqiqot oxirida esa $109,49 \pm 10,12$ sm natija ko'rsatildi, ya'ni 15,57%ga o'sganligi aniqlandi va farq statistik jihatdan ishonchli ($P < 0,01$) bo'lganini ko'rshimiz mumkin (3.5-jadvalga qarang).

Tiflo nazorat guruhi sinaluvchilaridan tadqiqot boshida va oxirida olingen jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarining tahlili (n=40)

O'r ganilayotgan ko'rsatkichlar	Tajriba boshida		Tajriba oxirida		O'sishi %		t	P	
	\bar{x}	σ	\bar{x}	σ	Absolyut	Nisbiy			
Joyidan turib uzunlikka sakrash (sm)	99,16	8,88	106,26	8,92	7,10	7,16	1,78	>0,05	
10 metrga yugurish (s)	9,65	0,91	10,54	0,95	0,89	9,22	2,14	<0,05	
Joyidan turib balandlikka sakrash (sm)	23,95	2,51	26,44	2,69	2,49	10,40	2,14	<0,05	
Qum haltachasini uzoqlikka otish (200 gr) (sm)	257,97	24,49	278,02	25,74	20,05	7,77	1,78	>0,05	
Qum haltachasini nishonga otish (ball)	1,22	0,13	1,33	0,13	0,11	9,02	1,89	>0,05	
Buyumlar orasidan "ilon izi" bo'y lab yugurish (s)	10,21	0,86	9,55	0,78	0,66	6,46	1,80	>0,05	
Rangli zariklarni qutiga solish	o'ng qo'l	11,67	1,35	12,78	1,43	1,11	9,51	1,78	>0,05
		12,32	1,31	13,63	1,39	1,31	10,63	2,17	<0,05
Tanani oldinga egish (sm)		2,12	0,25	2,31	0,23	0,19	8,96	1,77	>0,05

Tadqiqotimiz davomida 10 metrga yugurish tezligini aniqlashda NGda tadqiqot boshida ko'rsatilgan natijalar o'rtacha $9,65 \pm 0,91$ s ga teng bo'lgan bo'lsa, tadqiqot oxirida esa o'rtacha $10,54 \pm 0,95$ s ga teng natija ko'rsatildi, ya'ni $9,22\%$ ga o'sganligi aniqlandi ($P < 0,05$). TGda tadqiqot boshida natijalar o'rtacha $9,09 \pm 0,96$ s ga teng bo'lgan bo'lsa, tadqiqot oxirida esa $7,25 \pm 0,73$ s ga teng natija ko'rsatildi, ya'ni $20,24\%$ ga natija o'sganligi aniqlandi. Tadqiqot yakunida ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda NGda $10,54 \pm 0,95$ s va TGda $7,25 \pm 0,73$ s ga teng bo'ldi va farq statistik jihatdan ishonchli bo'lganini ($P < 0,001$) ko'rishimiz mumkin (3.6-jadvalga qarang).

Joyidan turib balandlikka sakrashda NGda tadqiqot boshida ko'rsatilgan natijalar o'rtacha $23,95 \pm 2,51$ sm bo'lgan bo'lsa, tadqiqot oxirida esa $26,44 \pm 2,69$ sm ga teng natija ko'rsatildi, ya'ni $10,4\%$ ga o'sganligi aniqlandi ($P < 0,05$). TGda tadqiqot boshida ko'rsatilgan natijalar o'rtacha $25,08 \pm 2,28$ sm ga teng bo'lgan bo'lsa, tadqiqot oxirida esa $29,48 \pm 2,57$ sm natija ko'rsatildi, ya'ni $17,54\%$ ga o'sganligi aniqlandi. TGda nazorat guruhimizga nisbatan $7,14\%$ o'sish kuzatildi.

Tadqiqot yakunida ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda NGda $26,44 \pm 2,69$ sm va TGda $29,48 \pm 2,57$ sm ga teng bo'ldi va farq statistik jihatdan ishonchli bo'lganini ko'rishimiz mumkin ($P < 0,001$).

Qum xaltachasini uzunlikka otish (ulogtirish) (200 gr) bo'yicha NGda tadqiqot boshida ko'rsatilgan natijalar o'rtacha $257,97 \pm 24,49$ sm ga teng bo'lgan bo'lsa, tadqiqot oxirida esa $278,02 \pm 25,74$ sm ga teng natija ko'rsatildi, ya'ni $7,77\%$ ga o'sganligi aniqlandi ($P > 0,05$). TGda esa tadqiqot boshida ko'rsatilgan natijalar o'rtacha $246,82 \pm 28,97$ sm ga teng bo'lgan bo'lsa, tadqiqot oxirida $289,76 \pm 33,01$ sm natija ko'rsatildi, ya'ni $17,4\%$ ga o'sganligi aniqlandi. Tajriba guruhi nazorat guruhiga nisbatan $9,63\%$ o'sish namoyish qilindi.

Tiflo tajriba guruhi sinaluvchilarining tadqiqot boshida va oxirida olingen jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarining tahlili (n=40)

O'rganilayotgan ko'rsatkichlar	Tajriba boshida		Tajriba oxirida		O'sishi %		t	p
	\bar{x}	σ	\bar{x}	σ	Absolyut	Nisbiy		
Joyidan turib uzunlikka sakrash (sm)	94,74	9,45	109,49	10,12	14,75	15,57	3,37	<0,01
10 metrga yugurish (s)	9,09	0,96	7,25	0,73	1,84	20,24	4,82	<0,001
Joyidan turib balandlikka sakrash (sm)	25,08	2,28	29,48	2,57	4,40	17,54	4,05	<0,001
Qum haltachasini uzoqlikka otish (200 gr) sm	246,82	28,97	289,76	33,01	42,94	17,40	3,09	<0,01
Qum haltachasini nishonga otish (ball)	1,15	0,13	1,33	0,14	0,18	15,65	2,98	<0,01
Buyumlar orasidan "llon izi" bo'ylab yugurish (s)	9,44	0,91	7,91	0,71	1,53	16,21	4,19	<0,001
Rangli zariklarni qutiga o'ng qo'l solish (dona)	12,52	1,37	14,41	1,47	1,89	15,10	2,97	<0,01
Rangli zariklarni qutiga chap qo'l	13,14	1,27	15,73	1,43	2,59	19,71	4,28	<0,001
Tanani oldinga egish (sm)	1,96	0,21	3,25	0,22	0,29	14,80	3,02	<0,01

Tadqiqot yakunida ushbu ko'rsatkich mos ravishda NGda $278,02 \pm 25,74$ sm va TGda $289,76 \pm 33,01$ sm ga teng bo'ldi va farq statistik jihatdan ishonchli tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin ($P<0,001$).

Qum xaltachasini nishonga otish (ball) (koordinatsiya)da NGda tadqiqot boshida ko'rsatgan natijalar o'rtacha $1,22 \pm 0,13$ ballga teng bo'lsa, tadqiqot oxirida esa $1,33 \pm 0,13$ ball natija ko'rsatildi, ya'ni 9,02% ga o'sganligi aniqlandi ($P>0,05$). TGda tadqiqot boshida ko'rsatilgan natijalar o'rtacha $1,15 \pm 0,13$ ballga teng bo'igan bo'lsa, tadqiqot oxirida esa $1,33 \pm 0,14$ ballga teng natija ko'rsatildi, ya'ni 15,65% ga o'sganligi aniqlandi. Tajriba guruhimiz nazorat guruhimizga nisbatan 6,63% ga o'sishni ko'rsatdi.

Tadqiqot yakunida ushbu ko'rsatkich mos ravishda NGda $1,33 \pm 0,13$ ball va TGda $1,33 \pm 0,14$ ballga teng bo'ldi va farq statistik jihatdan ishonchli bo'lganligini ko'rishimiz mumkin ($P<0,01$).

Buyumlar orasidan "llon izi bo'lib yugurish" NG tadqiqot boshida o'rtacha $10,21 \pm 0,86$ s natija ko'rsatilgan bo'lsa, tadqiqot oxirida esa $9,55 \pm 0,78$ s ga teng natiji ko'rsatildi, ya'ni 6,46% ga o'sganligi aniqlandi ($P>0,05$). TGda buyumlar orasidan "llon izi bo'lib yugurish" tadqiqot boshida ko'rsatilgan natijalar o'rtacha $9,44 \pm 0,91$ s ga teng bo'lgan bo'lsa, tadqiqot oxirida esa $7,91 \pm 0,71$ farq statistik jihatdan ishonchli bo'lganligini ko'rishimiz mumkin ($P<0,001$).

Rangli zariklarni qutiga solish (sensomotorika) bo'yicha o'ng qo'lda NGda tadqiqot boshida ko'rsatilgan natijalar o'rtacha $11,67 \pm 1,35$ donaga teng bo'lgan bo'lsa, tadqiqot oxirida esa $12,78 \pm 1,43$ dona natija ko'rsatildi, ya'ni 9,51% ga o'sganligi aniqlandi ($P>0,05$). TGda tadqiqot boshida ko'rsatilgan natijalar

o'rtacha $12,52 \pm 1,37$ donaga teng bo'lgan bo'lsa, tadqiqot oxirida esa $14,41 \pm 1,47$ donaga teng natija ko'rsatildi, ya'ni 15,10% ga o'sganligi aniqlandi. Tajriba guruhimiz, nazorat guruhimizga nisbatan 5,59% ga o'sishni ko'rsatdi va farq statistik jihatdan ishonchli qiymatni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin ($P < 0,01$).


Rangli zariklarni qutiga solish (sensomotorika) chap qo'lda NGda tadqiqot boshida ko'rsatilgan natijalar o'rtacha $12,32 \pm 1,31$ donaga teng bo'lgan bo'lsa, tadqiqot oxirida esa $13,63 \pm 1,39$ donaga teng natija ko'rsatildi, ya'ni 10,63% ga o'sganligi aniqlandi ($P < 0,05$). Tajriba guruhimizda tadqiqot boshida ko'rsatilgan natijalar o'rtacha $13,14 \pm 1,27$ donaga teng bo'lgan bo'lsa, tadqiqot oxirida esa $15,73 \pm 1,43$ donaga teng natija ko'rsatildi, ya'ni 19,71% ga o'sganligi aniqlandi. Tajriba guruhimiz, nazorat guruhimizga nisbatan 9,08%ga o'sishni ko'rsatdi ($P < 0,001$).

Tananing oldinga egilishi (egiluvchanlik) da NG da tadqiqot boshida ko'rsatilgan natijalar o'rtacha $2,12 \pm 0,25$ sm ga teng bo'lgan bo'lsa, tadqiqot oxirida esa $2,31 \pm 0,23$ sm ga teng natija ko'rsatildi ya'ni 8,96% ga o'sganligi aniqlandi ($P > 0,05$). TGda tadqiqot boshida ko'rsatilgan natijalar o'rtacha $1,96 \pm 0,21$ sm ga teng bo'lgan bo'lsa, tadqiqot oxirida esa $3,25 \pm 0,22$ sm natija ko'rsatildi, ya'ni 14,8%ga o'sganligi aniqlandi. Tajriba guruhimiz nazorat guruhimizga nisbatan 5,84% o'sishni ko'rsatdi va farq statistik jihatdan ishonchli tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin ($P < 0,01$).

Imkoniyati cheklangan bolalar, jumladan, oligofren, tiflo hamda surdo nozologiyasiga ega bolalar uchun ishlab chiqilgan jismoniy tarbiya dasturimiz adaptiv jismoniy tarbiyaning inklyuziv yondashuviga namunadir. Biz nafaqat variativ mashqlarni, balki dasturimizdagi har bir bolaga o'z potentsialini

ro'yobga chiqarishga imkon beruvchi moslashuvchan usullarni ham ta'kidlab o'tdik.

Maktabgacha talim muassasasi surdo guruhi tarbiyalanuvchilari bilan o'tkazilgan tadqiqotimizga asosan nazorat guruhida joyidan turib uzunlikka sakrash (sm) (tezlik-kuch) bo'yicha tadqiqot boshida ko'rsatgan natijalar $-94,54 \pm 9,15$ sm ga teng bo'lgan bo'lsa, tadqiqot oxirida $- 101,92 \pm 9,44$ sm natijani ko'rsatdi, ya'ni 7,81%ga o'sganligi aniqlandi ($P > 0,05$). Tajriba guruhida tadqiqot boshida ko'rsatgan natijalar $- 98,44 \pm 9,83$ bo'lgan bo'lsa, tadqiqot oxirida $- 116,27 \pm 10,84$ natijani namoyon qildi, ya'ni 18,11%ga o'sganligi aniqlandi ($P < 0,01$). Tajriba guruhi nazorat guruhiga nisbatan 10,3% o'sishni ko'rsatdi.



3.4-rasm. Pedagogik tadqiqot oxirida nazorat va tajriba guruhlari tarbiyalanuvchilarining jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari o'rtacha arifmetik qiymatlarining nisbiy farqlari (%).

10 metrga yugurish (s) (tezlik)da nazorat guruhida tadqiqot boshida ko'rsatgan natijalar – $8,53 \pm 0,72$ s ga teng bo'lgan bo'lsa, tadqiqot oxirida – $7,97 \pm 0,66$ s ga teng natijani ko'rsatdi, ya'ni 6,57 %ga o'sganligi aniqlandi ($P > 0,05$) (3.7-jadvalga qarang). Tajriba guruhida tadqiqot boshida natijalar – $8,96 \pm 0,79$ s teng bo'lgan bo'lsa, tadqiqot oxirida – $7,72 \pm 0,64$ s ga teng natijani ko'rsatdi, ya'ni ko'rsatkich 13,84 % ga o'sganligi aniqlandi ($P < 0,01$). Tajriba guruhida o'sish nazorat guruhiga nisbatan 7,27% ga teng bo'ldi (3.8-jadvalga qarang).

Joyidan turib balandlikka sakrash (sm) (tezkor-kuch) da nazorat guruhi tadqiqot boshida ko'rsatgan natijalar – $21,95 \pm 2,31$ sm bo'lgan bo'lsa, tadqiqot oxirida – $24,23 \pm 2,45$ sm ga teng natijani ko'rsatdi, ya'ni 10,39 %ga o'sganligi aniqlandi ($P < 0,05$). Tajriba guruhida tadqiqot boshida ko'rsatgan natijalar – $20,89 \pm 2,19$ sm ga teng bo'lgan bo'lsa, tadqiqot oxirida – $25,17 \pm 2,55$ sm natijani ko'rsatdi, ya'ni 20,49 %ga o'sganligi aniqlandi ($P < 0,001$). Tajriba guruhi nazorat guruhiga nisbatan 10,1% o'sishni ko'rsatdi.

Qum haltachasini uzoqlikka otish (200 gr) (kuch)da nazorat guruhi tadqiqot boshida ko'rsatgan natijalar – $277,38 \pm 20,35$ sm ga teng bo'lgan bo'lsa, tadqiqot oxirida – $294,22 \pm 21,07$ sm ga teng natijani ko'rsatdi, ya'ni 9,04 %ga o'sganligi aniqlandi ($P > 0,05$). Tajriba guruhida esa tadqiqot boshida ko'rsatgan natijalar – $285,93 \pm 22,24$ sm ga teng bo'lgan bo'lsa, tadqiqot oxirida – $325,46 \pm 23,66$ sm natijani ko'rsatdi, ya'ni 13,83 %ga o'sganligi aniqlandi. Tajriba guruhida nazorat guruhiga nisbatan 4,79 %ga o'sish kuzatildi ($P < 0,01$).

Qum xaltachasini nishonga otish (ball) (koordinatsiya)da nazorat guruhi tadqiqot boshida ko'rsatgan natijalar – $1,41 \pm 0,14$ ballga teng bo'lsa, tadqiqot oxirida – $1,55 \pm 0,15$ ball natijani ko'rsatdi, ya'ni 9,93 %ga o'sganligi aniqlandi ($P < 0,05$).

3.7-jadval

Maktabgacha ta'lim muassasasi nazorat (surdo guruhi) (n=38) tarbiyalanuvchilar bilan o'tkazilgan tadqiqot yuzasidan ma'lumotlar

O'rjanilayotgan ko'rsatkichlar	Tajriba boshida		Tajriba oxirida		O'sishi %		t	P
	\bar{X}	σ	\bar{X}	σ	Absolyut	Nisbiy		
Joyidan turib uzunlikka sakrash (sm) tezkor-kuch	94,54	9,15	101,92	9,44	7,38	7,81	1,78	>0,05
10 metrgay yugurish (s)	8,53	0,72	7,97	0,66	0,56	6,57	1,81	>0,05
Joyidan turib balandlikka sakrash (sm)	21,95	2,31	24,23	2,45	2,28	10,39	2,14	<0,05
Qum haltachasini uzoqlikka otish (200 gr) (sm)	277,38	20,35	294,22	21,07	16,84	6,07	1,82	>0,05
Qum haltachasini nishonga otish (ball)	1,41	0,14	1,55	0,15	0,14	9,93	2,16	<0,05
Buyumlar orasidan "Jlon izi" bo'ylab yugurish (s)	9,56	0,81	8,94	0,73	0,62	6,49	1,80	>0,05
Rangli zariklarni qutiga solish (dona)	o'ng qo'l	14,42	1,54	15,94	1,6	1,52	10,54	2,16
	chap qo'l	14,13	1,22	15,11	1,23	0,98	6,94	1,79
Tanani oldinga egish (sm)	2,15	0,2	2,31	0,21	0,16	7,44	1,74	>0,05

3.8-jadval

Maktabgacha ta'lim muassasasi tajriba (surdo) guruhi (n=38) tarbiyalanuvchilar bilan

o'tkazilgan tadqiqot yuzasidan ma'lumotlar

O'rganilayotgan ko'rsatkichlar	Tajriba boshida		Tajriba oxirida		O'sish %		P
	\bar{X}	σ	\bar{X}	σ	Absolyut	Nisbiy	
Joyidan turib uzunlikka sakrash (sm)	98,44	9,83	116,27	10,84	17,83	18,11	3,85 <0,01
10 metryga yugurish (s)	8,96	0,79	7,72	0,64	1,24	13,84	3,86 <0,01
Joyidan turib balandlikka sakrash (sm)	20,89	2,19	25,17	2,55	4,28	20,49	4,03 <0,001
Qum hattachasini uzoqlikka otish (200 gr) (sm)	285,93	22,24	325,46	23,66	39,53	13,83	3,85 <0,01
Qum hattachasini nishonga otish (ball) koordinatsiya	1,48	0,15	1,79	0,17	0,31	20,95	4,32 <0,001
Buyumlar orasidan "ilon izi" bo'ylab yugurish (s)	9,14	0,91	7,72	0,72	1,42	15,54	3,87 <0,01
Rangli zariklarni qutiga solish (dona)	13,67	1,21	16,47	1,33	2,80	20,48	4,92 <0,001
chap qo'l	13,49	1,43	16,06	1,63	2,57	19,05	3,75 <0,01
Tanani oldinga egish (sm)	2,23	0,21	2,62	0,24	0,39	17,49	3,87 <0,01

Tajriba guruhida tadqiqot boshida ko'rsatgan natijalar – $1,48 \pm 0,15$ ballga teng bo'lgan bo'lsa, tadqiqot oxirida – $1,79 \pm 0,17$ ballga teng natijani ko'rsatdi, ya'ni 20,95%ga o'sganligi aniqlandi. Tajriba guruhida nazorat guruhiga nisbatan 11,02%ga o'sish kuzatildi ($P < 0,001$).


Buyumlar orasidan "ilon izi bo'ylab yugurish" (s)da nazorat guruhi tadqiqot boshida ko'rsatgan natijalar – $9,56 \pm 0,81$ s ga teng bo'lgan bo'lsa, tadqiqot oxirida – $8,94 \pm 0,73$ s ga teng natijani ko'rsatdi, ya'ni 8,03%ga o'sganligi aniqlandi ($P > 0,05$). Tajriba guruhida tadqiqot boshida ko'rsatgan natijalar – $9,14 \pm 0,91$ s ga teng bo'lgan bo'lsa, tadqiqot oxirida – $7,72 \pm 0,72$ s ga teng natijani ko'rsatdi, ya'ni 15,54 %ga o'sganligi aniqlandi. Tajriba guruhi nazorat guruhiga nisbatan 7,51%ga o'sishni ko'rsatdi ($P < 0,01$).

Rangli zariklarni qutiga solish (sensomotorika) (o'ng qo'lda) da nazorat guruhi tadqiqot boshida ko'rsatgan natijalar – $14,42 \pm 1,54$ donaga teng bo'lgan bo'lsa, tadqiqot oxirida – $15,94 \pm 1,6$ dona natijani ko'rsatdi, ya'ni 10,54 %ga o'sganligi aniqlandi ($P > 0,05$). Tajriba guruhida tadqiqot boshida ko'rsatgan natijalar – $13,67 \pm 1,21$ donaga teng bo'lgan bo'lsa, tadqiqot oxirida – $16,47 \pm 1,33$ donaga teng natijani ko'rsatdi, ya'ni 20,48 %ga o'sganligi aniqlandi. Tajriba guruhi ko'rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan 9,94%ga o'sdi ($P < 0,001$).

Rangli zariklarni qutiga solish (sensomotorika) (chap qo'lda) da nazorat guruhi tadqiqot boshida ko'rsatgan natijalar – $14,13 \pm 1,22$ donaga teng bo'lgan bo'lsa, tadqiqot oxirida – $15,11 \pm 1,23$ donaga teng natijani ko'rsatdi, ya'ni 6,94 %ga o'sganligi aniqlandi ($P < 0,05$). Tajriba guruhida tadqiqot boshida ko'rsatgan natijalar – $13,49 \pm 1,43$ donaga teng bo'lgan bo'lsa, tadqiqot oxirida – $16,06 \pm 1,63$ donaga teng natijani ko'rsatdi, ya'ni 19,05%ga o'sganligi aniqlandi. Tajriba guruhida o'sish nazorat guruhiga nisbatan 12,11% ga teng bo'ldi ($P < 0,01$).

Tanani oldinga egish(sm) (egiluvchanlik) da nazorat guruhi tadqiqot boshida ko'rsatgan natijalar – $2,15 \pm 0,2$ sm ga teng bo'lgan bo'lsa, tadqiqot oxirida – $2,31 \pm 0,21$ sm ga teng natijani ko'rsatdi ya'ni 7,44 %ga o'sganligi aniqlandi ($P > 0,05$). Tajriba guruhida tadqiqot boshida ko'rsatgan natijalar – $2,23 \pm 0,21$ sm ga teng bo'lgan bo'lsa, tadqiqot oxirida – $2,62 \pm 0,24$ sm natijani ko'rsatdi, ya'ni 17,49 %ga o'sganligi aniqlandi. Tajriba guruhida nazorat guruhiga nisbatan 10,05% o'sish kuzatildi ($P < 0,01$).

Pedagogik tajriba yakuniga kelib NG va TG bolalarining jismoniy sifatlari rivojlanish ko'rsatkichlarining statistik xarakteristikalaridan o'rtacha arifmetik qiymatlarning nisbiy farqlari tajriba boshidagi ko'rsatkichlarga nisbatan sezilarli farqni tashkil etdi. Olingan testlar bo'yicha TG natijalari o'rtacha arifmetik qiymatlarini NG natijalari o'rtacha arifmetik qiymatlari bilan taqqoslasak, nisbiy farqlarining o'rtachasi tajriba boshida 1,12%ni tashkil etgan bo'lsa, tajriba oxirida ushbu ko'rsatkich 8,12%ga teng bo'ldi, ya'ni boshlang'ich natjalarga nisbatan oxirida katta farqlar bilan oshganligi kuzatildi.



3.5-rasm. Surdo nazorat va tajriba guruhlari ($n=38$) tarbiyalanuvchilari bilan o'tkazilgan tadqiqot davomida o'rganilayotgan ko'rsatkichlarni nisbiy o'sishlari (%).

Yuzaga kelgan faktlar, jismoniy imkoniyati cheklangan maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy sifatlari rivojlanish ko'rsatkichlarining pedagogik tajriba davomida TG dagi o'zgarish dinamikasi ancha yuqori va statistik ishonchli bo'lganligi tajriba guruhida qo'llangan "Ohista qadam" dasturining samaradorligini isbotlab turibdi. Tabaqalashtirilgan harakatli o'yinlar va mashqlarni joriy etish samaradorligi hamda pedagogik tadqiqot natijalarining tahlili ushbu bolalarning jismoniy rivojlanishi va ijtimoiylashishi yaxshilanganini aks ettiruvchi ko'rsatkichlarning ($P<0,05$) oshishida ifodalandi. Olingan ko'rsatkichlarni mantiqiy bog'lash, ilmiy asoslash "Ohista qadam" dasturi samaradorligini kompleks baholash imkonini beradi. O'rganilgan testlar bo'yicha aniqlangan absolyut farqlarning statistik ishonchliliginin Styudentning t-taqsimoti kritik qiymatlari asosida baholash NG 9 ta test ko'rsatkichidan 3 tasi ($P<0,05$) ahamiyatlilik darajasida ishonchli va qolgan 6 tasi ahamiyatlilik darajasida ishonchsiz ekanligi ($P<0,05$), TGda esa 5 tasi yaxshi ahamiyatlilik darajasida ishonchli ($P<0,01$) va qolgan 4 tasi yuqori ahamiyatlilik darajasida statistik ishonchli ekanligi ham TGda qo'llangan vosita va usullar samaradorligining isboti hisoblanadi ($P<0,001$).

XULOSALAR

Mavzu yo'nalishi bo'yicha to'plangan manbalar ma'lumotlarini o'rganish, olib borilgan kuzatuv, o'tkazilgan so'rov, joriy tadqiqotlar va pedagogik tajriba natijalarining qiyosiy tahliliga asosan quyidagi xulosalarni e'tirof etish mumkin:

1. Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim-tarbiya tashkilotlarida turli nozologiya guruhlariga (surdo, tiflo, oligofren) mansub bolalar bilan o'tkaziladigan jismoniy tarbiya tadbirlarida (ertalabki badantarbiya, jismoniy tarbiya mashg'ulotlari, harakatli o'yinlar) hayotiy zarur harakat ko'nikma va malakalarini shakllantirish yo'llari ko'plab mutaxassis-olimlar tomonidan ochib berilgan. Lekin, bunday mashqlarni tabaqaqalashtirilgan uslubda qo'llash, ularni qo'llash natijasida morfofunksional va jismoniy ko'rsatkichlarning geteroxron yonalishda o'zgarish dinamikasi, jismoniy rivojlanishning sensitiv davrlari yetarlicha o'rganilmaganligi aniqlandi. Olib borilgan joriy tadqiqotlarimiz natijalaridan ham ma'lum bo'ldiki, bolalar bilan o'tkazilayotgan mashg'ulotlarda qo'llanilgan jismoniy mashqlar morfofunksional va jismoniy imkoniyatlarga sust ta'sir etganligi aniqlandi.

2. Pedagogik kuzatuv asosida imkoniyati cheklangan maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida nozologiyasi bo'yicha mashqlarni shakllantirish masalalariga e'tiborning yo'qligi, jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyoragarlik vositalaridan yetarlicha foydalanmaslik bolalarning gavda tuzilishi va yoshga nisbatan rivojlanishini past darajaga olib kelishiga hamda maktab ta'limida harakatlarning nomutanosib shakllanishiga sabab bo'layotganligi aniqlandi.

3. Tadqiqot doirasidagi pedagogik tajriba davomida maktabgacha yoshdagi katta va tayyorlov (5-7 yoshli) guruhlariga mansub bolalarning nozologiyasi bo'yicha jismoniy rivojlanganlik ko'rsatkichi (antropometriya) va tezkor-kuch

sifatlarini o'rganish uchun tanlangan test-mashqlar bo'yicha ko'rsatgan natijalarining o'rtacha arifmetik qiymatlari nazorat guruhlariga nisbatan tajriba guruhida 5-6% ga yuqori va statistik ishonchli o'sgan, bu esa qo'llangan metodikaning an'anaviy dasturga nisbatan yuqori samaradorligidan dalolat beradi.

4. Pedagogik tajribada olingen natijalar, qiyosiy va statistik ko'rsatkichlarni o'zaro taqqoslash orqali mакtabgacha yoshdagi katta va tayyorlov guruhlariga mansub bolalarning yoshiga xos funksional ko'rsatkichlarni o'rganish uchun tanlangan testlar natijalari nazorat guruhlarida 6-12% ga, tajriba guruhlarida esa 12-20% ga o'sganligi, ko'rsatkichlarning statistik ishonchliligi aniqlandi.

5. Imkoniyati cheklangan bolalarning harakat faolligini aniqlash maqsadida o'tkazilgan pedagogik tajriba natijalari, ularning tahlili borasidagi fikr-mulohazalar va qayd etilgan statistik ko'rsatkichlarni o'zaro solishtirish asosida mакtabgacha yoshdagi tajriba guruhlari bolalarining nozologiya bo'yicha ko'rsatgan natijalari o'rtacha arifmetik qiymatlari pedagogik tajriba davomida mos nozologiyadagi nazorat guruhlari natijalariga nisbatan yuqori va statistik ishonchli progressiv o'zgarganligi aniqlandi. Bu esa, biz ishlab chiqqan va tajriba guruhida qo'llagan dastur nazorat guruhida qo'llangan an'anaviy dasturga nisbatan yuqori samaradorligidan dalolat bermoqda. Nazorat guruhiga nisbatan tajriba guruhi bolalarida jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari ishonchli yaxshilangani kuzatildi. Pedagogik tajribalar davomida o'tkazilgan testlar bo'yicha NGda 9 ta test ko'rsatkichidan 3 tasi me'yordagi ($P<0,05$) ahamiyatlilik darajasida ishonchli va qolgan 6 tasining ($P>0,05$) ahamiyatlilik darajasida ishonchsiz ekanligi, TGda esa 5 tasi yaxshi ($P<0,01$) ahamiyatlilik darajasida ishonchli va qolgan 4 tasi yuqori ($P<0,001$) ahamiyatlilik darajasida statistik ishonchli ekanligi ham TGda qo'llangan vosita va usullar samaradorligining isboti hisoblanadi.

6. Tadqiqot jarayonida "Ohista qadam" variativ dasturi DKTIMTTda amalda bo'lgan ta'lim-tarbiya dasturiga nisbatan samarali ekanligi asoslab berildi. Tajriba natijalariga ko'ra buning sabablari shundaki, "Ilk qadam" davlat dasturi Koreya tajribasi asosida yaratilgan bo'lib, ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun uning variativ shakllari mavjud emas. "Ohista qadam" variativ dasturi esa jismoniy tarbiya dasturi bo'lib, rivojlanish xaritasiga muvofiq mashg'ulotlarda kuch, tezlik, chaqqonlik, egiluvchanlikni rivojlantirishga yo'naltirilib, harakat faolligini 8-9%ga oshirishga erishilgan.

7. Qo'llanilgan maxsus "Ohista qadam" dasturi asosida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining alohida tarkibiy qismlarini tabaqa lashtirish orqali imkoniyati cheklangan maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy sifatlarini rivojlanishini eng maqbul yo'li ekanligi tasdiqlandi. Buni tajriba yakunida olingan sinov natijalari tasdiqlaydi: uzunlikka sakrash 15,7% ga oshdi, 10 metrga yugurish 20,24% ga yaxshilandi, joyidan turib balandlikka sakrash 17,54% ga oshdi, masofaga qum haltachasini uloqtirish natijalari 17,4% ga, nishonga qum haltachasini uloqtirish - 15,65% ga, ilon izi yugurish 16,21% ga o'sdi, kublarni yig'ish natijalari 15,1% ga yaxshilandi va nihoyat, oldinga egilish natijalari 14,8% ga yaxshilandi.

8. Pedagogik tadqiqot natijalariga ko'ra imkoniyati cheklangan maktabgacha yoshdagi bolalarda harakat qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish o'rtacha 16,9%ga oshgan bo'lib, biz tomonimizdan ishlab chiqilgan uslubiyat mazkur nozologiya yo'riqchilari uchun ham foydali qo'llanma ekanligi o'z isbotini topdi.

AMALIY TAVSIYALAR

1. Jismoniy tarbiya yo'riqchisi imkoniyati cheklangan maktabgacha yoshdagi bolalarga berayotgan jismoniy yuklamalarni, mashqlarni, harakatlari o'yinlarni ularning nozologiyasiga xos moslashtirishi va soddallashtirishi lozim. Shundagina ixtisoslash-tirilgan maktabgacha ta'lif tashkiloti tarbiyanuvchilarida jismoniy tarbiya mashqlariga va mashg'ulotlariga bo'lgan qiziqishni shakllantirishga erishiladi.
2. Tadqiqot davomida yaratilgan "Ohista qadam" tabaqlash-tirilgan variativ dasturining jismoniy tarbiya bo'limiga tegishli bo'lgan yirik, mayda va senso-harakatikani rivojlantirishga qaratilgan harakatlari o'yinlarni asosiy faoliyatlarda, sayrda va faoliyik markazlarida qo'llash tavsiya etiladi.
3. Jismoniy tarbiya mashg'ulotini ochiq havoda bajarish, asosan bolalarda yirik harakatikani rivojlantirishga qaratilgan harakatlari o'yinlarni tabaqlashtirilgan hamda hududiy imkoniyatlardan foydalangan holda haftasiga 2-3 marta sayrlarda 40 daqiqa gacha qo'llash tavsiya etiladi.
4. Maktabgacha ta'lif tashkilotida, bolalarni harakatlarni bajarishda ko'nikma va malakalarini shakllanganlik darajalarini aniqlashda, davlat talablarida berilgan yo'naliishlarda 5 soha bo'yicha rivojlanish xaritalarini kuzatuvlari asosida to'ldirish va natijalarni tahlil qilish lozim.
5. Jismoniy tarbiya yo'riqchisi harakatlari o'yinlarni tashkil etishda, turli tashkiliy uslublarni birlashtirishni bilishi, ya'ni jamoaviy, frontal, guruhi hamda individual jihatlarini ham hisobga olishi, o'z navbatida shug'ullanuvchilarning jismoniy va ruhiy holatini optimallashtirish uchun qo'shimcha va samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.
6. Jismoniy mashqlar va harakatlari o'yinlar avvalo sog'lom-lashtirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim, shundagina ikkilamchi

og'ishlarning zo'riqishi kamayadi, bunda jismoniy tarbiya vositalari tanlovi – bolalarning yoshiga, ularning jismoniy tayyorgarligiga, nozologiyasiga, inventarlarning mavjudligiga, xavfsizligiga qaratilishi lozim, shundagina dastur bo'limlarida keltirilgan davlat talablarini bajarish imkoniyati ham oshadi.

7. Pedagogik tajriba asosida haddan yuqori ruhiy va jismoniy zo'riqishni pasaytirish va bolalarning charchashini oldini olish maqsadida, dam olish tanaffuslarini (1daqiqadan 1,5 daqiqagacha) qo'llash lozim. Jismoniy sifatlarni rivojlantirish uchun maxsus mashqlarni variativ o'yin va estafeta shaklida o'tkazish maqsadga muvofiq.

8. Imkoniyati cheklangan maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishda foydalaniladigan jismoniy mashqlar va harakatli o'yinlarni tabaqalashtirilgan holda qo'llash bo'yicha mos dasturlarni amalga oshirishga jalb etilgan mutaxassislarga ushbu faoliyat bo'yicha malaka oshirish kurslarini o'tash tavsiya etiladi, bu esa, o'z o'rnila, pedagogni adaptiv jismoniy tarbiya sohasida kasbiy kompetentligini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

